

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI
INSTITUTI

FARRUX ABDUAZIMOV

CHOLG'U SOZLARINI O'RGANISH
(rubob)

60211400 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)

60112400 - Professional ta'lif: 60211400 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)
ta'lif yo'nalishlari 1-kurs talabalari uchun

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT-2024

Mazkur o‘quv qo‘llanmada 60211400 - Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik), 60112400 - Professional ta’lim: 60211400 - Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fani bo‘yicha xonanda talabalarni Rubob cholg‘usida ijrochilikni mukammal o‘zlashtirishlari, jo‘rnavozlik qobiliyatlarini rivojlantirish, cholg‘u sozi bo‘yicha repertaurlar tanlash va ular ustida ishslash metodikasi, keljakda kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil etishlari, cholg‘u sozi bo‘yicha umumiyl bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

O‘quv qo‘llanma “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” hamda sozandalar uchun “Qo‘sishimcha cholg‘u sozlarini o‘rganish” fani bo‘yicha Rubob cholg‘usida pedagogik faoliyat bilan shugullanuvchi professor-o‘qituvchilar va san’at ta’limi sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

В данном учебном пособии 60211400 – Вокальное искусство (традиционное пение), 60112400 – Профессиональное образование: 60211400 – Вокальное искусство (традиционное пение) образовательные направления» По предмету «Изучение слов инструмента» обучающиеся пению обучаются в совершенстве владеть игре на инструменте Рубоб, развивать навыки аккомпанемента, выбирать репертуар инструмента и работать над ним, эффективно организовывать свою профессиональную деятельность в дальнейшем, предусматривается формирование общих знаний, умений и навыков владения музыкальными инструментами.

Учебное пособие «Изучение инструментальных слов» и «Изучение дополнительных инструментальных слов» для музыкантов, предназначенное для студентов, обучающихся по направлению коневодства.

In this study guide, 60211400 - Vocal art (traditional singing), 60112400 - Professional education: 60211400 - Vocal art (traditional singing) educational directions " In the subject "Learning the words of the instrument" the singing students are trained to perfectly master the performance of the Rubob instrument, to develop the skills of accompaniment, to choose the repertoires of the instrument and to work on them, to effectively organize their professional activities in the future. formation of general knowledge, skills and qualifications on musical instruments is envisaged.

Study guide "Learning instrument words" and "Learning additional instrument words" for musicians. intended for students studying in the field of horse education

MA'SUL MUHARRIR: dotsent N.Qodirov

TAQRIZCHILAR:

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI professori R.Qosimov

O'zbekiston davlat konservatoriysi professori O.Nazarov

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 20.....-yil “____”dagi ____-sonli buyrug'i asosida nashr etishga ruxsat berilgan.

MUNDARIJA

KIRISH	
I-MODUL. CHOLG‘U IJROCHILIGINING DASTLABKI KO‘NIKMALARI	
1-mavzu: TALABALARNING TANLAGAN CHOLG‘USI BILAN TANISHTIRISH VA O‘QUV SEMESTRI UCHUN DASTUR TANLASH	11
2-mavzu TANLANGAN CHOLG‘U SOZI UCHUN MO‘LJALLANGAN BOSHLANG‘ICH TEXNIK MASHQLAR O‘RGANIS’H	33
3-mavzu: BASTAKORLAR IJODIYOTIGA MANSUB KICHIK SHAKLDAGI CHOLG‘U KUYLARIDAN O‘RGANISH	69
4-mavzu: BASTAKORLAR YOKI XALQ IJODIYOTIGA MANSUB KICHIK SHAKLDAGI ASARLARDAN CHOLG‘UDA JO‘R BO‘LIB IJRO ETISHNI O‘RGANISH	86
5-mavzu: O‘RGANILGAN ASARLARNI SAHNADA IJRO ETISHGA TAYYORLASH FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	108
G L O S S A R I Y	130
	132

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	
I МОДУЛЬ. БАЗОВЫЕ НАВЫКИ РАБОТЫ НА ИНСТРУМЕНТЕ	
Тема №1: ОЗНАКОМЛЕНИЕ С ВЫБОРОМ СТУДЕНТАМИ ИНСТРУМЕНТА И ВЫБОРОМ ПРОГРАММЫ ДЛЯ СЕМЕСТРА ОБУЧЕНИЯ	11
Тема №2: НАЧАЛО ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИЧЕСКИМ УПРАЖНЕНИЯМ, ПРЕДНАЗНАЧЕННЫМ ДЛЯ ВЫБРАННОГО ИНСТРУМЕНТА	33
Тема №3: ИЗУЧЕНИЕ НА НЕБОЛЬШИХ ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫХ ВОСПОМИНАНИЯХ, ПРИНОСЯЩИХСЯ К ТВОРЕНИЯМ КОМПОЗИТОРОВ	69
Тема №4: ОБУЧЕНИЕ ИСПОЛНЕНИЮ ПОД ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫМ СОПРОВОЖДЕНИЕМ ПРОИЗВЕДЕНИЙ МАЛОЙ ФОРМЫ, ПРИНАДЛЕЖАЩИХ КОМПОЗИТОРОВ ИЛИ НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА	86
Тема №5: ПОДГОТОВКА РАЗУЧЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ К ВЫСТУПЛЕНИЮ НА СЦЕНЕ	108
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ	130
Г Л О С С А Р И Й	132

CONTENTS

INTRODUCTION	
I-MODULE. BASIC SKILLS OF INSTRUMENT PERFORMANCE	
1- theme INTRODUCING THE STUDENTS' CHOICE OF THE INSTRUMENT AND CHOOSING THE PROGRAM FOR THE	11
2- theme: LEARNING BEGINNING TECHNICAL EXERCISES DESIGNED FOR SELECTED	33
3- theme: LEARNING FROM LITTLE INSTRUMENT MEMORIES BELONGING TO THE CREATIONS OF	69
4- theme: LEARNING TO PERFORM WITH AN INSTRUMENT ACCOMPANIMENT OF SMALL FORM WORKS BELONGING TO COMPOSERS OR FOLK CREATIVITY	86
5- theme: PREPARING LEARNED WORKS FOR PERFORMANCE ON STAGE	108
LIST OF REFERENCES	130
GLOSSARY	132

KIRISH

Xalqimizning ma’naviy hayoti, milliy qadriyatlari, millatimizning ko‘p yillik an’ana va uduumlari, shuningdek, ustoz-shogirdlik an’analari asosida bizgacha yetib kelgan milliy musiqiy merosimizga yuksak hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni chuqur o‘rganish, keng targ‘ib qilish hamda kelgusi avlodga munosib tarzda yetkazish borasida bir qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning uzlusiz ta’lim tizimida ham o‘sib kelayotgan yosh avlodga boy madaniy merosimizni o‘rgatish va milliy qadriyatlarimizni singdirish muhim va dolzarb masalalardan biri sifatida e’tibor qaratilgan. Shu o‘rinda aytish joizki, milliy mumtoz musiqa va cholg‘u ijrochiligi san’atini o‘rgatish yosh avlodning ma’naviyati va madaniy ongini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

O‘zbekistonda cholg‘u ijrochiligi maktablari ta’limning ilk bosqichidan boshlab o‘qitiladi. “Cholg‘u sozini o‘rganish” fanini o‘qitish bo‘yicha mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari va xususiyatlarini o‘rganish talabalarni o‘qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini to‘g‘ri belgilashning eng muhim shartidir. Ushbu fanni hozirgi mavjud shakllaridan biri xonandalarda cholg‘u sozida ijrochilik mahoratini gavdalantirishdir. Jamiyatning mana shunday mutaxassislarga yehtiyoji tobora sezilmoqda. Zero, oliv o‘quv yurtlaridagi musiqiy ta’lim-tarbiya jarayoni talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va rivojlantirish dasturi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yilda tashkil etilgan prezident maktablari tajribasidan foydalangan holda yangi va zamonaviy maktablar qurish, mavjudlarini zamon talablari asosida moslashtirish yuzasidan bir qator qarorlar qabul qildi. Ma’lumki, davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan mакtab dasturlariga “Shaxmat saboqlari” o‘quv mashg‘uloti fan sifatida kiritildi. Shuningdek, Prezidentimiz musiqa xonalarini ko‘zdan kechira turib “*Har bir o‘g‘il-qiz hech bo‘lmasa bitta cholg‘u asbobini chalishni bilishini istardim*” degan fikrni ilgari surgan edilar. Ana shu fikrni amalga oshganligining isboti sifatida 2022-yil 2-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №PQ-112-sonli Qarori

e'lon qilinganligi xalqimizning madaniy hayotida muhim hodisa bo'ldi. Unda madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lismuassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, nota to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratishga alohida ye'tibor qaratilgan bo'lib, bu kelgusida milliy mumtoz musiqa san'atini xalqimiz orasida keng ommalashishi hamda mazkur san'at turi bo'yicha ko'plab iste'dodli yoshlarni kashf etish imkonini beradi. Haqiqatan ham milliy mumtoz musiqa insonning barkamol voyaga yetishida va uning jamiyat hayotida faol ishtirok etishida muhim omillardan bo'lishi ilmiy va amaliy jihatdan o'z isbotini topgan.

Mazkur Qarorda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2022/2023-o'quv yilidan boshlab ta'lismuassasalarida o'quvchi va talabalarining musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirilishi belgilandi. Jumladan, umumiyo'rta ta'limgakhlifiy maktablarida milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahoratini o'rgatilishi hamda bu haqda ularning dasturlariga tegishli qayd kiritilishi, shuningdek, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab esa o'quvchilarining har biri milliy cholg'ulardan kamida uchtasida kuy ijro eta olish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash musiqa fami o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanishi belgilandi.

Ushbu Qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha umumiyo'rta ta'limgakhlifiy maktablarida milliy cholg'ularni o'qitishni yo'lga qo'yish borasida avvalo milliy musiqa san'ati sohasi mutaxassislari tomonidan quyidagi vazifalarni bajarish eng dolzarb ishlar qatorida bo'lmogi lozim:

- 1) Milliy musiqa bo'yicha zamon talabalariga mos mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlash;
- 2) umumiyo'rta ta'limgakhlifiy maktablari uchun milliy musiqaga oid o'quv adabiyotlar yaratish;

3) musiqiy qobiliyatga ega iqtidorli o‘quvchilarni tanlash va tarbiyalash bo‘yicha nazariy-amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqish;

4) Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini o‘quvchilarda o‘z qiziqishlariga ko‘ra muayyan milliy cholg‘u turi shuningdek, xonandalik bo‘yicha ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirisga tayyorlash.

Cholg‘u ijrochiligi musiqa san'ati sohasida eng ommalashgan turlardandir. Har bir xalqning o‘z milliy cholg‘u sozlari bor. Shu bilan birga, butun jahoning barcha xalqlari orasida ommalashgan cholg‘u asboblari ham mavjud. Yurtimiz kundan kunga rivojlanib, dunyo miqyosida o‘z o‘rnini topib, yuksak darajalarga chiqib borayotgan bir paytda oliy musiqiy ta’limining har bir bosqichi jahon andozalarining ilg‘or pedagogik tajribalari namunalari asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Talabalar mazkur bosqichning o‘zida professional musiqa madaniyati, musiqa san'atining nazariy hamda amaliy asoslari haqida chuqur bilimga yega bo‘ladilar. An’anaviy xonandalik, xonandalik ansambli, cholg‘u sozini o‘rganish, cholg‘u ijrochiligi fanlari ijrochilik bilan bog‘liq talabalarda mutaxassislik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Musiqa ta’limining bakalavriat ixtisoslik bosqichi oliy ta’limning birinchi bo‘g‘ini bo‘lib, undan so‘ng magistratura bo‘g‘iniga o‘tiladi. Bakalavriat musiqa ta’limida malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Bu bosqichning vazifasi yakkanavoz xonanda ijrochilar, cholg‘uchilar hamda akademik litsey va kollejlar uchun pedagoglar tayyorlashdan iboratdir. Magistratura bosqichining asosiy maqsadi bilimli, zamon talablariga mos bo‘lgan yuqori professional ijrochi mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi. Musiqiy ta’lim tizimining har bir bosqichi kerakli malaka va darajadagi saboq jarayoni bilan ta’minlangan. Uning hayotga tadbiq etishdagi uzluksizligini ta’minalash, ketma-ketligini oqilona tuzish yaxshi natijalarga olib keladi. Shu bois, davlatimiz tomonidan jahon andozalari doirasida qabul qilingan va hayotga joriy etilgan ta’lim tizimi o‘z natijalarini bermoqda.

Oliy musiqiy ta’limda “Cholg‘u ijrochiligi”, “Qo‘srimcha cholg‘ularni o‘rganish”, “Oiladosh cholg‘ularni o‘rganish” kabi fanlar mavjud bo‘lib, mazkur fanlar asosan cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida taxsil olayotgan talabalar uchun ixtisoslik fani

sifatida olib boriladi va DTS talablari darajasida mutaxassis tayyorlashga e’tibor beriladi. Xonandalar uchun o‘qitiladigan “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fani esa bo‘lajak xonandalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, musiqiy ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, qo‘sish qaylash va cholg‘u sozida jo‘r bo‘lib ijro etish bo‘yicha tayyorgarliklarni oshirishga qaratiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma aynan “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fani doirasida tayyorlangan bo‘lib, unda xonanda talabalarda tanlagan milliy cholg‘u sozi bo‘yicha yakka ijrochilik, cholg‘uda o‘z ijrosiga jo‘r bo‘lish hamda jo‘rnavorozlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy va metodik tavsiyalar bilan boyitilgan hamda talabalarning milliy cholg‘u sozlarida ijro mahorati va imkoniyatlarini yanada kengaytirishga alovida e’tibor qaratilgan.

Har bir yosh xonanda musiqiy asarlarning g‘oyaviy va badiiy tarzda chuqr o‘zlashtirishda, o‘z ijrochilik mahoratini hamda san’atini ko‘p sonli tinglovchilarga to‘la etkazib bera olishida “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fani muhim ahamiyatga egadir. Mazkur fan mumtoz musiqa san’atini yanada chuqurroq o‘rganish, uni keng targ‘ib qilish va rivojlantirish borasida samarali natija beradi.

Shuningdek, talabalar o‘zлари tanlagan cholg‘u sozlarini o‘rganish bo‘yicha ijro ko‘nikmalariga ega bo‘lish, muayyan cholg‘u sozini o‘rganishning qonun-qoidalarini mukammal egallash, nazariy bilimlarini oshirish hamda o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ijro mahoratlarini to‘liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Biz, mazkur o‘quv qo‘llanmada “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fanidan mashg‘ulotlarni tashkil qilish yuzasidan o‘qituvchilar uchun metodik ko‘rsatmalar, fanni o‘zlashtirish bo‘yicha talabalar uchun nazariy va amaliy ma’lumotlarni yoritishga harakat qilganmiz.

1-MAVZU: TALABALAR LARNING TANLAGAN CHOLG'USI BILAN TANISHTIRISH VA O'QUV SEMESTRI UCHUN DASTUR TANLASH

Reja:

1. Qashqar rubobi haqida ma'lumot
2. Cholg'u ijrochiligi haqida tushuncha.
3. Qashqar rubobida ijrochilik holati. Qashqar rubobida ijrochilik ta'limi
4. Talablar ijro etishlari uchun tavsiya etilgan yillik namunaviy asarlar (semestrlar kesimida)

Kalit so'zlar: ijrochilik, ta'lim-tarbiya, qo'shiq, kuy, ohang, musiqa ilmi, ruhiy holat, pedagogik yondashuv

1.1. Qashqar rubobi haqida ma'lumot

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda, o'ziga xos va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg'u asboblari shakllanib, arslar osha rivojlanib kelgan.

Tarixiy qo'lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O'rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg'u asboblarning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma'lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg'ulardan: borbad, ud, rud, qobuz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar turli darajadagi ma'lumotlar bilan keltirilgan.

Bu cholg'u qadimgi Torin va Yorkent daryosi bo'yalaridagi vohalarda yashagan Do'lon qabilalarining qadimiy cholg'u asbobi hisoblanib, meloddan 4 asr oldin qo'llanilganligini turli manbalarda ko'rishimiz mumkin.

Qashqar rubobining Shinjon uyg'urlari orasida tarqalgan «do'lon rubobi» nomli turi mavjud. Uning dastasi pardasiz, naqshli fason qulog'i hamda uchta asosiy va bir necha rezonator torlari bo'lib, mizrob bilan chalinadigan sozlardan hisoblanadi.

Bugungi kunda Uyg‘ur xalq musiqa ijrochiligidagi rubob cholg‘usining «Podachi rubob», «Qashqar rubob», «Do‘lon rubob» va «Bas rubob» deb nomlangan 4 turi keng qo‘llanilmoqda.

Uyg‘ur Qashqar rubobi — Uyg‘ur xalqining eng ommalashgan cholg‘usi sifatida shahardan to kichik qishloqlargacha tarqalgan. Uning birinchi tori 1-oktava «do» notasiga sozlanib to‘rttadan oltitagacha rezonator torlari mavjud.

Do‘lon rubobi — «Qumul rubob» deb ham yuritilib asosiy uchta tori lya-re-lya, lya-mi-lya, kabi sozlanadi. Bundan tashqari o‘ntagacha rezonator torlari bo‘ladi.

Bas rubobi esa re-lya-re, re-sol-re notalariga sozlanib orkestrlarda keng qo‘llaniladi¹. Bularidan tashqari Uyg‘urlarda rubobning 8 torli turi ham mavjudligi haqida ma’lumotlar bor.

Rubob cholg‘usi Markaziy Osiyoda keng ommalashgan bo‘lib, o‘zbek, tojik, uyg‘ur xalqining sevimli cholg‘usi hisoblangan.

Ma’lumotlarga qaraganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekistonda bu cholg‘u kam uchragan va dastasiga ichak bog‘langan diatonik tovushqatorli cholg‘ulardan biri bo‘lgan.

XX asrning 40-50 yillaridan boshlab, Toshkent Davlat konservatoriysi qoshida cholg‘ularni o‘rganish va takomillashtirish maqsadida professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi tajriba-sinov ishlari tashkil qilinib, unda o‘zbek xalq cholg‘ulari qayta ishlana boshlandi. Jumladan Qashqar rubobi ham qayta ishlanib, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan prima, alt va messo-soprano turlari yaratildi. Natijada Qashqar rubobida o‘zbek xalq musiqasi bilan birga ko‘plab boshqa xalqlar kuylari va kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Rubob primada to‘rtta tor bo‘lib, birinchi tori ikkinchi oktava MI, ikkinchi tori birinchi oktava LYa, uchinchi tori birinchi oktava RE va to‘rtinchi tori kichik oktava SOL notalariga sozlanadi. Messo-soprano rubobi esa birinchi juft torlar birinchi oktava LYa, ikkinchi juft torlar birinchi oktava MI, uchinchi tor esa kichik oktava LYa notalariga sozlanadi.

¹ «Уйгур чолгу асбоблари». Турсунжон Латип. Шинжонъ Университети нашри. 1997.

Messo – soprano rubobi birinchi juft torlar birinchi oktava LYa, ikkinchi juft torlar birinchi oktava MI, uchinchi tori kichik oktava SI notalariga sozlanadi.

Alt rubobi esa beshta torli bo‘lib, birinchi va ikkinchi torlar juft torlar, uchinchisi esa ichak tordan iborat bo‘lib, birinchi oktava RE, kichik oktava LYa, kichik oktava MI notalariga sozlanadi. Qashqar rubobining tovushi yozilganidan bir oktava past eshitilsa, yangi yaratilgan rubobolar nota yozuvi balandligiga mos jaranglaydi.

Bugungi kunda rubobning Qovurg‘ali hamda an’anaviy o‘yma qashqar rubob turlari amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

Qovurg‘ali rubob dastasining uzunligi an’anaviy o‘yma qashqar rubobiga nisbatan qisqaroq va yog‘och quloqlar o‘rniga metalldan yasalgan mexanik quloqlar o‘rnatilganligi bilan farq qiladi (1-2 rasmlar).



1-rasm



2-rasm


Qovurg‘ali rubob asosan boshlang‘ich o‘quv davrida, o‘zining ixchamligi va sozlash imkoniyatining birmuncha yengilligi bilan nisbatan qulay hisoblanadi. An’anaviy o‘yma Qashqar rubobi menzurasi uzunligi sababli tovush jarangdorligi va tinik sadolanishi bilan ajralib turadi.

Qashqar rubobining dasta qismida asosan 24 ta metall pardalar joylashgan bo‘lib, ular rubob tovush katoriga xromatik tarzda 0,5 tondan kilib joylashtirilgan va tartib buyicha bosh qismidan kosa qismiga karab sanaladi. Dastaning bosh qismi tomonidan yuqori harrak urnatilgan bo‘lib, torlar shu yuqori harrak orkali kuloklarga takiladi. Yuqori harrak ochik torlarning tayanchi hisoblanadi. Dastaning kosaga tutashgan joyida fason kuloklari mavjud.

Qashqar rubobning kosasi asosan tut daraxtidan, dastasi esa urik daraxtidan yasaladi. Torlarni tortib turuvchi ilmoklar ham kosa qismida joylashgan bo‘lib, ular ham yogochdan yoki metalldan ishlangan bo‘lishi mumkin.

Rubob kosasi balik teri bilan koplanadi va o‘nga harrak urnatiladi. Harrak yumshok yogoch yoki plastmassadan yasalgan bulmasligi kerak, aksincha kattik yogochdan va ixcham shaklda bo‘lishi maqsadga muvofikdir. Bundan tashqari harrakning balandligi va torlarning bir-biriga nisbatan joylashuvi ham juda muhim. Torlarning orasi juda tor yoki kengrok bo‘lishi mumkin emas, chunki torlar o‘zaro juda yaqin bo‘lsa barmoqlar bilan bosilganda bir-biriga tegib koladi va aksincha torlar o‘zaro masofasi me’yordan kengroq bo‘lsa, torlar barmoqlar ostidan chiqib ketishi mumkin. Juft torlar urtasidagi o‘zaro masofa orasi taxminan 3 mm bo‘lsa, birinchi, ikkinchi va uchinchi torlar orali oraligi 10-12 mm bo‘lishi maqsadga muvofikdir.

Harrakning balandligi asosan cholg‘uning sadolanishi va pardalarning anik sozlanishiga muvofik holda tanlanadi. Bunda torlar dastadan juda ham baland yoki past bo‘lmay chap qo‘l bilan torlarni pardaga bosish uchun kulay darajada bo‘lgani ma’kul. Chunki, harrak baland bo‘lsa juda nokulay, past bo‘lsa ovozning sifati uzgarib ketishiga sabab bo‘ladi.



1-qulqoq; 2-rubobning bosh qismi; 3-shayton xarrak; 4-pardalar; 5-dasta; 6-teri; 7-torlari; 8-xarrak; 9-ilmoqlar; 10-kosa.

Qashqar rubobida asosan beshta tor bo‘lib, ularning to‘rttasi metall va bittasi ipak torlardan iborat. Metall torlar juft-juft kilib, ipak tor esa alodida sozlanadi.

Amaliyotda 1-juft torlarning kalinligi 0,23- 0,24 mm, juft torlar esa 0,25-0,28 mm qalinlikda bo‘ladi. Lekin har bir cholg‘u o‘ziga xos bo‘lganligini hisobga olib, bu o‘lchovlarni rubobning ovoz sifati va sozlanishining eng yaxshi holatida tanlash maqsadga muvofiqdir.

Qashqar rubobi yetuk sozandalar, ijrochilar, xushovoz xonandalar tomonidan emas, balki turli ansamblar va xalq cholg‘u asboblari orkestrlari tarkibida takomillashtirilgan hamda uning yangi yaratilgan turlari musiqiy cholg‘u sozlari ichida munosib o‘rin olgan.

Qashqar rubobining xalqimiz orasida ommalashib borishida ustoz sozandalarning o‘rni beqiyosdir. Ular tomonidan ijro etilgan kuylar, milliy maqom kuylarini maromiga yetkazib ijro etshdagagi ularning ijro uslublari tinglovchilarni rubob soziga bo‘lgan e’tiborlarini yanada o‘ziga jalg qilishiga sabab bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Shunday mohir rubobchilardan biri 1950 yillarda mashhur bo‘lgan san’atkor Muhammadjon Mirzaevdir.

M.Mirzaev o‘zining ijodiy izlanishlari, jozibali ijrosi bilan tinglovchilarga badiiy-estetik zavq ulashadi. Republikamizning turli viloyatlarida bu cholg‘u sozi havaskor ijrochilar va mutaxassislar ushun qulay va sevimli sozga aylanadi. Ta’lim

muassalarida ham mazkur cholg‘u sozini o‘rganishga bo‘lgan extiyoj kun sayin ortib boradi. Keyinchalik ushbu cholg‘u sozi murakkab va mukammal shakldagi musiqiy namunalarni ijro yetishda benuqson bo‘lishi ushun ma’lum darajada takomillashtirilib borilgan. Xususan rubob dastasidagi pardalar 19, 24 taga yetkazilib xromatik tartibga keltirilgan. Diapazon jihatidan ikki oktavadan ortiq tovush ko‘lamiga yega bo‘ldi.

Qashqar rubobiga xos bo‘lgan ijro imkoniyatlari maqom va maqom yo‘llaridagi musiqiy namunalarni talqinida yaqqol namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Shunki hozirgi paytda nisbatan sodda xalq kuylarini ijro etishda yoki ashulachilar tomonidan jo‘rnavoz cholg‘u sifatida ishlatilganida qashqar rubobining barcha imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmaydi. Shuning ushun bo‘lsa kerak, havaskor rubobchilar ham mutaxassis sozandalar repertuaridagi murakkab kuylarni ijro yetishga intiladilar.

Rubob bo‘yicha ustoz sozandalarimizdan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, faxriy professor Toxir Rajabiy, “Turon” fanlari akademiyasi akademigi, professor Rifatilla Qosimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor Odil Nazarov, dotsent Ravshan Abduazimov, Mansur Voisovlar talaba-yoshlarga milliy musiqa san’atining ijrochilik sirlarini o‘rgatib kelmoqdalar.

1.2.Cholg‘u ijrochiligi haqida tushuncha

O‘zbek musiqa pedagogikasi bamisoljonli organizm, doimo boyib, ko‘payib boruvchi tarbiya sohasidir. Xalq orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, g‘am-g‘ussasiyu armonlari shodlik, baxtiyorlik onlariyu qadr-qimmatlari, ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik qarashlari, dunyoqarashi, falsafiy-ahloqiy tushunchalari, ta’lim-tarbiyaviy xulosalari xalq pedagogikasida o‘z aksini topadi.

Mustaqillikka erishib, umuminsoniy va o‘zbekona qadriyatni har tomonlama chuqurroq anglay boshladik. Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, yangi avlod tarbiyasi birinchi o‘ringa chiqdi.

O‘zbek xalq pedagogikasi an’analarida farzandlarni estetik idroki (estetik-hissiy idroki) hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammalashtirish ta’lim

oluvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, yestetik did asoslarini shakllantirish, estetik tarbiyada milliy musiqiy meroslarimizning o‘rni va ahamiyatiga katta e’tibor qaratilgan (“ustoz-shogird” an’analari, xalq ommaviy tomosha san’ati – dorbozlik, askiya, baxshi-shoircilik, dostonchilik, qiroatxonlik, yetuklik, voizlik kabi san’atlar). Sanab o‘tilgan ko‘plab udum, rasm-rusumlar, odat-marosimlar, an’analar o‘zbek musiqa pedagogikasining qirralari naqadar ko‘pligini ko‘rsatadi.

Jumladan, qo‘shiqlar, (maqomlar, milliy, lirk, marosim, mavsum qo‘shiqlari, yor-yorlar, allalar, yig‘i yo‘qlovlar, sog‘im, o‘rim, bayram-sayl qo‘shiqlari, bolalar folklorining namunalari) go‘zallik, samimiyat, mehr-shafqat, orzu, umid tuyg‘ularini tarannum etish orqali har qanday kishida chuqur insoniy tuyg‘ularni o‘stiradi, hayotga, tabiatga nisbatan insonda cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.

Al-Kindiy islom falsafasi asosida ilk musiqa nazariyasini haqida risolalar yozgan hamda bu san’atning badiiy-estetik va tarbiyaviy jihatatlari, ma’naviy barkamol ishonchni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyatini yoritib bergen.

Farobiy “Musiqa haqida risola” asarida musiqani uch turga ajratadi. Ulardan birinchisi insonga huzur-halovat baxsh etar ekan; ikkinchisi ehtiros uyg‘otib, qalbni junbushga keltirar ekan; uchinchisi esa kishini uyga toldirib, fikrlashga undar ekan. Alloma “Ixso ul-ulum” asarida musiqa ilmi qondan zaruriyat va ehtiyoj tufayli paydo bo‘lgani xususida yozar yekan, uning ahloqiy-tarbiyaviy jihatlariga alohida to‘xtaladi. “Bu ilm shu ma’noda foydaliki, u muvozanatini yo‘qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, nomukammal xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo‘lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo‘lsa, ruh ham ohanglar vositasida ruhni sog‘aytirish asnosida tana sog‘aytiriladi, ruh esa bag‘ridagi quvvatning tartibga solinishi va o‘z mohiyatiga moslashtirilishi orqali sog‘ayadi”.

“Har bir inson – deb yozadi Ibn Sino – ko‘nglidagini boshqaga bildirish, boshqalarning ko‘nglidagini esa o‘zi bilishga muhtojdir. Shuning uchun Musiqaning insonga ta’siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o‘rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadidi. Shu o‘rinda

Asafevning «...musiqa – bu ham san’at, ham fan, ham til, ham o‘yin»²–degan so‘zlarini yeslash maqsadga muvofiqdir.

Demak, ta’lim oluvchilarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek, ijrochilik mahoratlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy barkamolligiga katta ta’sir etadi. Qo‘sinq kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatar ekan, kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur singib boradi, unda har xil hislarni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo‘sinqning matni, g‘oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta’sir qilib, ularni hayajonlantiradi. Honanda ham kuylab ham soz chalishi orqali u kishilarni fikrlashga majbur etadi, asarda aks etgan obraz yoki g‘oyalarga nisbatan muayyan munosabat uyg‘otadi. Bunday ta’sir g‘oyat murakkab va kuchlidir.

Xonandalar uchun cholg‘u sozlarini o‘rganishning asosiy maqsadi shuki, ular o‘zлari ijro etayotgan asarga jo‘rnavozlik qila olish, o‘quvchilarga cholg‘u sozini o‘rgatish, ta’lim jarayonini samarali tashkil eta olish, ijro mahoratini yanada yuksaltirishdan iboratdir. Shu o‘rinda biz aynan honandalarga rubob cholg‘usini o‘rgatish, rubob cholg‘usida jo‘rnavozlik sirlari, rubob cholg‘usida asarlarni to‘la va mukammal o‘rgatish bo‘yicha nazariy, amaliy va metodik ko‘rsatmalarni ishlab chiqishga harakat qildik.

Uzoq yillar mobaynida ta’lim uslubiyoti shakllandi. Xalq cholg‘ularini qayta ta’mirlash va takomillashtirish natijasida tovush hosil qilishning texnik usullari, yangi ijrochilik ko‘nikmalari ishlab chiqildi.

Xalq cholg‘ularida ijrochilik maktablari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, xalq cholg‘ularidan rubob ushun, uni o‘rgatish va ijrochilik ta’limi bo‘yicha o‘quv-adabiyotlar yaratila boshladи. Shunday qilib, rubob cholg‘usi bo‘yicha musiqiy ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini ushun ta’lim asoslari shakllandi.

Har qanday talaba butun o‘quv yili mobaynida yetarli miqdorda keng umumiy ta’lim va kasbiy bilimlarga yega bo‘lishi kerak. Shunki, hammamizga ma’lumki, ko‘pgina bitiruvshilarimiz o‘z hayotlarini pedagogik faoliyat bilan bog‘laydilar. Bu

² Асафьев Б. В. “Замонавий рус мусиқашунослик ва унинг тарихий вазифалари”. — De Musica, 1–сон. Л., 1926, 17–бет.

yesa psixologiya, pedagogika, uslubiyot bo'yicha yaxshi tayyorgarlikni, keng dunyoqarashga yega bo'lishni talab etadi. Ammo shu paytgacha pedagogika tamoyillariga asoslangan, ta'limning o'ziga xosligini ochib beruvshi, ijrochilik madaniyati yutuqlarini ifodalagan umumiy va shaxsiy uslublar ishlab chiqilmagan.

"Cholg'u sozlarini o'rganish" xonanda talabalarning musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga, musiqa ta'limi, vazifalari va metodlarini o'rgatishga, o'quv jarayonlarini samarali va mahorat bilan tashkil yetishga, musiqa ta'limining shakl va usullarini amaliyatga tadbiq yetishga yo'naltirilgan fandir.

Metodika so'zi yesa - grekcha so'zdan olingan bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» degan ma'noni anglatadi va ta'lim - tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi yesa musiqa o'qitish metodlari deyiladi.

Xonandalar nafaqat xonandalikni o'qitish asoslari, musiqa o'qitish metodikasi, balki cholg'u ijrochilagini o'qitishni, uning metodlari bilan birlashtirishda, pedagogikaning amaliy, xususiy (optimal) metodlarni egallab, musiqa darslarida ulardan foydalana olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida musiqa o'qituvchisining shaxsiy sifatlari va unga qo'yilgan professional talablar va talabalarga musiqiy bilim berishda xususiy metoddardan foydalanish lozimligi ilmiy asoslab berilgan. Xususiy metod - biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyatida o'zaro aloqadorligini va o'quvchilarmi bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir. Shu jihatdan "Cholg'u sozlarini o'rganish" fanida xususiy (optimal) metodlardan o'qitish faoliyati va maqsadiga ko'ra quyidagicha foydalanish talab etiladi:

- darsni musiqaviy umumlashtiruvshi metod sifatida;
- darslarni oldingi o'tilgan darslar bilan bog'lash, mavzularni ham uzviy bog'lashga ye'tibor berish;
- dars mazmunini yemotsional ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan metod sifatida;
- darsning ijrochilik va pedagogik jihatdan kuzatilishi, bilimlarni baholash metodi siftida.

Oliy musiqiy ta'limda xonandalar musiqa madaniyati, musiqa san'atining nazariy hamda amaliy bilimlariga ega bo'ladilar. Xonandalar uchun an'anaviy xonandalik asoslari, musiqa nazariyasi, cholg'u sozlarini o'rganish fanlari musiqani nazariy o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, ijrochilik bilan bog'liq ixtisoslik darslari ularda mutaxassislik ko'nikmalarini shakllantiradi. Oliy musiqiy ta'lim tizimi muayyan ixtisoslik, ya'ni professional darajadagi mutaxassis tayyorlashning ilk bosqichidir. Shu nuqtai nazardan mazkur bosqichda xonandalar uchun "Cholg'u sozlarini o'rganish" ayniqlsa, rubob chalishni o'rganish kelajakda kasbiy faoliyatiga professional darajada tayyor bo'lish, mahoratli xonanda va sozanda bo'lib yetishish, musiqiy ta'lim jarayonini bir butun holda tashkil eta olishga zamin yaratadi.

Xonandalar "Cholg'u sozlarini o'rganish" (rubob) fanini o'rganish jarayonida umumiyl bilimga ega bo'lish bilan birga, ixtisoslik bo'yicha cholg'u ijrochiligini o'qitish tamoyillarini ham o'rganadilar. Ular talabalik davridan boshlab shaxsiy ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishi va bunda muntazam tayyorlanib borishi juda muhimdir. Shu bois, oliy musiqiy ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi xonandalarning cholg'u sozlarini ham o'zlashtirish faoliyati bilan bog'liqdir.

Oliy musiqiy ta'limda mukammal ishlangan o'quv dasturlari asosida ta'lim berib boriladi. Oliy musiqiy ta'limga talabalar musiqiy savodi shakllangan, u yoki bu cholg'u ijrochiligi bo'yisha muayyan boshlang'ich tushunshaga yega bo'lgan holda keladilar. Cholg'u ijrochiligi bo'yicha talabalar boshlang'ich bilim olish davrida davrida juda jiddiy shug'ullanishlari talab etiladi. Chunki ularning keyingi ijrochilik faoliyati bosqichlarida katta yutuqlarga erishishlari ana shu boshlang'ich saboq va mashqlarga bog'liqdir. Dastlabki shakllangan ko'nikmalar, ulg'aygandan so'ng ixtisoslik bo'yicha mahoratni oshirishda qo'l keladi. Demak rubob cholg'u ijrochiligi bo'yicha boshlang'ich musiqa ta'limining asosiy vazifalaridan biri – mahoratli sozanda, jo'rnavoz va iqtidorli yoshlarni kashf etishdir.

Cholg'u ijrochiligidagi ansambl bo'lib ijro etish, jo'rnavozlik mahorati, notadan o'qish mahorati asosiy faoliyat turlari hisoblanadi. Mazkur faoliyat turlaridan oliy ta'limning birinchi bosqichidan boshlab foydalanish talab etiladi. Bu bosqichning vazifasi - yakkanavoz xonanda va sozanda ijrochilar, musiqa va san'at maktablari,

san'at kollejlari uchun pedagoglar tayyorlashdan iboratdir. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi - bilimli, zamon talabidagi yuqori professional ijrochi xonanda va sozanda mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi. Musiqiy ta'lim tizimining har bir bosqichi kerakli malaka va darajadagi saboq jarayoni bilan ta'minlangan. Uning hayotga tadbiq etishdagi uzluksizligini ta'minlash, ketma-ketligini oqilona tuzish yaxshi natijalarga olib keladi. Shu bois, davlatimiz tomonidan jahon andozalari doirasida qabul qilingan va hayotga joriy etilgan ta'lim tizimi o'z natijalarini bermoqda. ‘

1.3.Qashqar rubobda ijrochilik holati. Qashqar rubobida ijrochilik ta'limi

Qashqar rubobi yakkaxon ijrochilikda keng qo'llaniladigan cholg'ulardan hisoblanib, uni o'tirgan, turgan holatda ijro etiladi, ushbu cholg'u orkestr va ansamblarda keng qo'llaniladi. Qashqar rubobi milliy cholg'u sozi hisoblanadi, ijrochilik amaliyotida ustozlar an'analaridan foydalangan holda ijro yo'llari takomillashtirilib borilmoqda.

Albatta, cholg'uni yaxshi o'zlashtirish birinchi navbatda uni to'g'ri tutishdan boshlanadi. Ijrochining ijro etishdan oldin gavdasini tik tutishi, rubobni to'g'ri ushlashi, oyoq va qo'llarning erkin bo'lishi, qolaversa uning tashqi ko'rinishi sahnaga mos bo'lishi lozim.



1-rasm



2-rasm

O‘qituvchi birinchi darsdan boshlab talabaning ijrochilik holatiga e’tibor berish bilan bir qatorda to‘g‘ri ijrochilik holatini shakllantirishi, o‘ng va chap qo‘llarning holati va harakati, ya’ni cholg‘uni to‘g‘ri ushslash, dastani to‘g‘ri tutish, mizrobni to‘g‘ri ushslash kabi elementlarning sinchiklab tushuntirishi maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va xatolar (rubobni to‘g‘ri tutmaslik, gavda, oyoq va qo‘l holatlari) sozandaning ijrochilik faoliyatiga, sahnadagi ijrochilik mahoratini rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ya’ni, bu jarayonda asosiy e’tibor to‘g‘ri yo‘naltirilgan ijrochilik holatiga qaratilishi lozim. (1-2-rasmlar)

Ijro paytida ijrochining gavda, qo‘l harakatlarining erkin bo‘lishi, ijrochiga uzoq vaqt charchamasdan chalish imkoniyatini beradi. Albatta, talabalar darsdan keyin o‘z ustida ko‘proq ishlashlari, gavda, qo‘l harakatlarini erkin va mustaqil bo‘lishi uchun mashq qilishi, tashqi ko‘rinish bilan ijro paytidagi holatlari bir-biriga mutanosib bo‘lishi uchun jiddiy shug‘ullanishlari talab etiladi. Noto‘g‘ri qo‘yilgan ijrochilik holati, shuningdek, o‘ng va chap qo‘llarning harakatlanishidagi erkinlikka e’tibor bermaslik natijasida ijrochining ijro paytida tez charchab qolish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Xonandalar asosan musiqiy ta’lim olish jarayonida xonandalik asosarini chuqr o‘rganadilar. Ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida cholg‘u sozlarini ham chuqr o‘rganishi, kuylayotgan qo‘srig‘iga o‘zi jo‘rnavorlik qilishi muhim ahamiyatga egadir.

Oliy musiqiy ta’limda xonandalar uchun «Cholg‘u sozlarini o‘rganish» fani professional darajada cholg‘u sozlarini o‘rganishga qaratilgan o‘quv dasturlari asosida o‘qitilishi va talabalar 4 yil davomida turli cholg‘u sozlarini o‘rganishlari ko‘zda tutilgan. Talabalarni rubob cholg‘u sozini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyоqlari yuqori bo‘lganligi sababli, dasturda ularga nafaqat xonandalik, balki cholg‘u sozida ijrochilik faoliyatlariga ham talablar belgilab qo‘yilgan. Mazkur talablar xonandalardan 4 yil davomida cholg‘u sozida ijrochilik mahoratlarini rivojlantirib borishlari uchun asosiy omil hisoblanadi.

Amaliy jarayonda o‘qituvchi talabalarning ijrochilik holatiga e’tibor berishi kerak. Chunki ijrochilik holati avval yaxshi bo‘lib, keyinroq buzilishi ham uchrab

turadi. Sozandaning ijrochilik holati konsert ijrochiligidagi, ayniqsa, musiqiy asarning mohiyatini olib berishda va tinglovchida badiiy-estetik taassurot qoldirishda asosiy omil hisoblanadi.

Rubob kosasini ushlab turishda gavdaning 3 muhim jihatiga e'tibor berish lozim:

- a) gavdaning ko'krak qismi;
- b) kosani ilmoqlar tomonidan tutib turuvchi bilakning yuqori qismi;
- v) o'ng qo'lning rubob kosasini tagidan tutib turuvchi bilak qismi quyidagi rasmga ko'ra shakllantirilishi lozim.(3-rasm)



3-rasm

Ijrochilikda bu uch jihat juda muhim hisoblanadi. Rubob kosasini bunday tutib turish uni pastga yoki tepaga chiqib ketmasligini ta'minlaydi.

O‘ng qo‘lning tirsak qismi rubob kosasini tagidan ushlab turadi. Demak, o‘ng qo‘lni rubob kosasining chetiga shunday kuyish kerakki, mizrob rubob darragidan 7-8 sm uzoqlikda joylashgan bo‘lsin. Bunday holat aynan o‘ng qo‘lning pastga yuqoriga erkin harakatlanishini va sifatli tovush hosil kilishni ta’minlaydi.



4-rasm

Mizrob (mediator) xarrakdan uzoqlashib ketmasligi lozim, aksincha o‘ng qo‘l bilak qismining qotib qolishi, cholg‘u sozidan chiqayotgan tovushning qo‘pol jaranglashiga sabab bo‘ladi. Agar mizrob xarrakka juda yaqin joylashgan holatda ijro qilinganda bilakdagi kuch panjalargacha yetib kelmay, faqat panja qismining o‘zigina harakat qiladi. Bu esa rubob kosasining qimirlab harakatlanishiga va texnik imkoniyatlarning kamayishiga, natijada tovush kuchi va sifatining pasayishiga olib keladi.

Mizrob barcha mizroblari cholg‘ularda tovush hosil qilishning asosiy vositasidir. Mizroblar shaklan har-xil bo‘lib, plastmassa yoki ebonitdan tayyorlanadi. (5-rasm).



5-rasm

Mizrobnı ushslash uchun o‘ng qo‘l barmoqlari yarim aylana holga keltiriladi. Bunda barmoqlar bir tekisda bukilib, ko‘rsatkich barmoqning tirnoqqa yaqinroq joyiga mizrob qo‘yiladi va bosh barmoq bilan bo‘g‘inlari bukilgan holda ushlanadi. Quyidagi rasmda mizrobnı ushslash qoidasi ko‘rasilgan.(6-rasm)



6-rasm

Mizrobnı noto‘g‘ri ushslash natijasida sezish va boshqarish imkoniyati yo‘qoladi. Rubob chalishda bu texnik kamchiliklarga sabab bo‘lib, turli shtrixlar va asarni dinamik jihatdan to‘laqonli ijro etish imkoniyatlarini kamaytiradi. Mizrobnı to‘g‘ri ushslash uchun maxsus mashqlardan foydalanish tavsiya eiladi. Bunday mashqlar panjalar orasi ochilib ham yoki aksincha juda ko‘p bukilib ham ketmaslikni oldini olishga yordam beradi, mizrobnı qo‘yishga va ushlashga yordam beradi.

Tovush chiqarish usuli barcha mizroblı cholg‘ularda deyarli bir xil. Albatta har birining o‘ziga xos tomonlari mavjud Qashqar rubobi uning dastasi uzun, torlari ingichka va jarangdorlik yuqori bo‘lganligi uchun tovush chiqarish usullari boshqa mizroblı cholg‘ulardan farq qiladi. Qashqar rubobida ijro imkoniyatlari keng bo‘lganligi sababli, o‘zbek mumtoz musiqasi, maqom kuylari hamda bastakorlarimiz asarlarini ijro etish maroqlidir.

Qashqar rubobida tovush chiqarish asosini pastga va yuqoriga uriladigan zarblar tashkil qiladi, ya’ni Qashqar rubobida mizrob (mediator) bilan pastga va yuqoriga zorb

berib, tovush hosil qilinadi va bu zarblarning turli xil kombinatsiyalaridan tovush chiqarishning xilma-xil usullarini hosil qilishimiz mumkin. Bu usullar barcha adabiyotlarda bir xil tavsiya etiladi va maxsus belgilar bilan ifodalanadi.

1. Pastga zARB — Π belgisi bilan.
2. Yuqoriga zARB esa V — belgisi bilan ifodalanadi.

O‘rganishning dastlabki bosqichida talabaga mizrobnI to‘g‘ri ushlashdan boshlab, pastga zARB bilan chalishni o‘rganishdan boshlaydi. Albatta bunda o‘ng qo‘l panjalari erkin harakat bilan pastga zARB berishi kerak. Bu mashg‘ulotni ochiq torlarda bajarish, keyin chap qo‘l bilan eng qulay bosiladigan pardalarda davom ettirilsa, o‘zlashtirish yanada oson bo‘ladi.

1-mashq



2-mashq



Yuqoridagi mashq va shunga o‘xhash mashqlarni ko‘proq bajarish, mizrobnI boshqa simlarga tegib ketmasligi uchun aylanma harakat qilish kerak.

Yuqoriga beriladigan zARB esa mizrobnI pastdan yuqoriga qarab urilishi bilan hosil qilinadigan eng oddiy usullardan biri. Lekin aynan shu usulning to‘liq o‘zlashtirilmasligi rez, triol va shu kabi usullarning ham to‘laqonli chiqmasligiga va keyinchalik ham sozandalarning ijrosida tovush sifatining pastligiga, kuchsizligiga va o‘z-o‘zidan musiqiy asarning ijrosi to‘laqonli bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi.

O‘ng qo‘lning pastga bo‘lgan harakati kuchliroq, yuqoriga harakati esa kuchsizroq bo‘ladi. Aslida ikkala harakat ham teng bo‘lishi maqsadga muvofiq. Agar yuqoriga qanchalik zARB bilan urilmasin mizrobnI torga tegish nuqtasi noto‘g‘ri bo‘lsa tovush notejis va sifatsiz bo‘lib qolaveradi. Aksariyat hollarda yuqoriga beradigan zarblar faqat bitta simga tegadi yoki o‘ng qo‘lning aylanma harakat qilmasligi sababli mizrob bilan simga pastdan zARB berilmay, tirnab ovoz chiqarish holatlari kuzatiladi.

Demak, yuqoriga kuchli zarb bo‘lishi bilan birga pastga urilgan zARBning tovush kuchi bilan barobar tovushga erishishga asosiy e’tiborni qaratish lozim, chunki *f* yoki *pp* chalinganda ham pastga-tepaga urib chalinadi va ular ovoz kuchi jihatidan birbiriga teng bo‘lishi kerak. Bunga yuqorida ta’kidlaganimizdek aynan mizrobnii boshqara olish bilangina erishish mumkin.

Qashqar rubobida tovush asosan mizrobnii torga urilishi bilan hosil qilinar ekan, demak asosiy e’tibor o‘ng qo‘l holatiga, mizrobga va uni boshqarishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chap qo‘lning rubob dastasiga to‘g‘ri qo‘yilishi, barmoqlarning harakatlanishi, pardalarni o‘z vaqtida bosilishi toza tovush hosil qilish malakalarini o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Rubob dastasi bosh va ko‘rsatkich barmoqlar o‘rtasida bo‘lib bunda dasta siqib ushlanmasligi, bosh barmoq esa ikkinchi va uchinchi barmoqlar o‘rtasida turishi kerak. Bunda kafning dastaga yopishib turmasligini doim nazorat qilish lozim. Aks holda rubobdan chiqayotgan tovush jarangdorligini yo‘qotadi. (7-8-rasmga qarang)



7-rasm (to‘g‘ri)



8-rasm (noto‘g‘ri)

Buning sabablaridan biri pardalarni barmoqlarning uchi bilan bosmasligidadir. Bunda barmoqlarning oxirgi bo‘g‘ini albatta bukilgan bo‘lishi va pardaga ko‘ndalang emas, balki kosa tomonga qaratilib, shu tomonga ya’ni pardaga yaqin joyda bosish maqsadga muvofiqdir .(9-10- rasm)



9-rasm (to‘g‘ri)



10-rasm (noto‘g‘ri)

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki ko‘p holda talabalarning 3-4 barmoqlari kuy ijrosi vaqtida dasta tagida bo‘lib qoladi, bu noto‘g‘ri albatta.

Rubobni ushlaganda dastaning uchi yelka balandligi bilan barobar bo‘lgani ma’qul. Chunki, bunday holat sozanda uchun qulay va shu bilan birga chiroyligi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Agar dastaning baland yoki past bo‘lishi kuzatilsa, unda o‘ng qo‘lning holatida kamchilik bo‘lishi mumkin. Ikkala qo‘l bir-biri bilan uzviy bogliq bo‘lishi lozim.

Qashqar rubobida barmoqlar belgilanishi quyidagicha:

1. Ko‘rsatkich
2. O‘rta
3. Nomsiz
4. Jimjiloq

Shu bilan birgalikda chap qo‘lning bosh barmog‘iga katta ahamiyat berish zarur. Bosh barmoq yotgan holda bo‘lishi lozim. (11-rasm)



11-rasm

Qashqar rubobida beshta tor mavjud:

1-2-torlari bir xil sozlanib birinchi oktava **LYA** notasiga;
3-4-torlari ham bir xil sozlanib birinchi oktava **MI** notasiga;
5-tori kichik oktava **LYA** yoki **SI** notasiga sozlanadi (kuyning xususiyatiga qarab sozlanishi belgilanadi).

Qashqar rubobi torlarining sozlanishi:



Qashqar rubobini o‘rganishda avval «**LYA**» va «**MI**» torlarida chalishni o‘zlashtirish tavsiya etiladi. Qashqar rubobda sozandaning texnikaviy ijrochilik mahoratini rivojlantirishda gamma, arpedjio, turli mashq va etyudlarni muntazam ravishda o‘rganib, ijro etib borish katta ahamiyatga egadir. Gamma, arpedjio, mashq va etyudlar ustida ishlash jarayonida ijrochilikning sifatiga, mizrobning mayin harakatiga va uning yumshoq ijrosiga, tovushning nafisligiga, ritmni aniq his etishiga, barmoqlarning aniqligiga, pozitsiyalarining erkin almashinuviga ayniqsa musiqaviy sado (intonatsiya) ning aniqligiga va hokazolarga e’tibor berish zarur.

Tovush to‘lqinlanishi (vibratsiya) ham qashqar rubobi ijrochisining ijrochilik maqsadlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Tovush to‘lqinlanishini ijro etayotganda,

mushaklarning ortiqcha zo‘riqishiga yo‘l qo‘ymaslik, tovush to‘lqinlanishini hosil qilish malakasini o‘zlashtirishdagi muhim omildir.

1.4.Talablar ijro etishlari uchun tavsiya etilgan yillik namunaviy asarlar (semestrlar kesimida)

I-yarim yillik uchun:

IJRO DASTURLARI

- | | |
|---------------------------|------------------|
| 1. “Archa bayrami” | I.Akbarov |
| 2. “Bahor qo‘shig‘i” | G‘.Qodirov |
| 3. “Biz baxtiyor oilamiz” | R.Komiljonov |
| 4. “Yallama yorim” | O‘zbek xalq kuyi |
| 5. “Bahor” | I.Akbarov |
| 6. “Qashqarcha I” | O‘zbek xalq kuyi |
| 7. “Orzu dil” | M.Mirzayev |
| 8. “Vatan marshi” | F.Sodiqov |
| 9. “Raqqosasidan” | J.Sultonov |
| 10. “Feruza” | G‘.Ro‘ziboyev |
| 11. “Gulshan” | M.Mirzayev |

II- yarim yillik uchun

IJRO DASTURLARI

- | | |
|---------------------|--------------------|
| 1. “Arzi hol” | R.Tursunov |
| 2. “Rajabiy” | O‘zbek xalq kuyi |
| 3. “Shahlo” | R.Tursunov |
| 4. “Bizning ayvon” | T.Jalilov |
| 5. “Sharob I” | O‘zbek xalq kuyi |
| 6. “Sharob II” | O‘zbek xalq kuyi |
| 7. “Tasnifi Buzruk” | “Buzruk” maqomidan |

8. “Garduni Buzruk”	“Buzruk” maqomidan
9. “Farg‘onacha janon”	O‘zbek xalq kuyi
10. “Saboh”	O‘zbek xalq kuyi
11. “Go‘zal vatanim”	M.Mirzayev
12. “Mirzadavlat”	O‘zbek xalq kuyi
13. “Dilxiroj”	O‘zbek xalq kuyi
14. “Tasnifi Dugoh”	“Dugoh” maqomidan
15. “Garduni Dugoh”	“Dugoh” maqomidan

“Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fanining o‘quv dasturiga muvofiq, ijro dasturlarida belgilangan asarlarni o‘rganish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga mos ravishda quyidagi badiiy va uslubiy ko‘rsatmalardan foydalanish tavsiya etiladi:

- notalarini varaqdan ravon o‘qish;
- nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish;
- ijro ko‘nikmalarini takomillashtirish;
- kuylash san’ati;
- ovoz turlari;
- ijro uslublari;
- texnik mashqlar;
- artikulyatsiya;
- kuylash imkoniyatlarini va ovoz ko‘lamini kengaytirish;
- milliy mumtoz musiqa namunalarini ijro etish uslublari;
- musiqiy bezaklar;
- ijro shtrixlari;
- vokal ijrochiligining o‘ziga xosliklari;
- milliy mumtoz asarlar tahlili;
- musiqiy shakl;
- musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish;
- talabani mustaqil ravishda ham kuylab ham soz chalishga yo‘naltirish;

- asarlarni mohirona ijro etish ustida ishslash;
- konsert ijrochilik mahoratini shakllantirish;
- jo‘rnavoz bilan mustaqil ishslash.

Musiqa asarini o‘rganishga kirishishdan avval o‘rganilayotgan asarni tahlil etish yuzasidan o‘tkaziladigan muntazam mashg‘ulotlar talabaning ijrochilik kamolotida katta rol o‘ynaydi. Masalan: yangi asarni o‘rganishdan avval talabaning musiqa asarining qaysi tonallikda yozilganligi, asarning musiqa bezaklari, uning dinamik belgilari va boshqalar bilan tanishtiriladi. Musiqa asarining murakkab joylari tushuntiriladi va hokazolar.

O‘quv yili uchun berilgan mavzular har semestrda ijro dasturlari murakkablashtirilgan, ya’ni oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirilgan holda beriladi. Albatta bu jarayonda talabalarning iqtidori, ijro imkoniyatlari hisobga olingan holda o‘rganiladigan asarlarning murakkablik darajasi chegarlanmasligi lozim.

Yangi asar berilayotgan vaqtida o‘qituvchi avvalo o‘sha asarni talabaga o‘zi jo‘rnavoz bilan birgalikda ijro etib berishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va amaliy topshiriqlar:

1. Rubob cholg‘usi qachon va qayerda paydo bo‘lgan va qanday turlari mavjud ?
2. Rubob cholg‘usi qachon va kim boshchiligidagi takomillashtirildi?
3. Rubob cholg‘u ijrochiligi ustalaridan kimlarni bilasiz?
4. Rubob cholg‘usi, uning paydo bo‘lishi, tarixiy taraqqiyoti haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtiring.
5. Rubobda ijrochilik holatini oynaga qarab to‘g‘ri qo‘ygan holda mashqlar chaling.
6. Mizrobdan to‘g‘ri foydalanish borasida mashqlar bajaring.
7. Qashqar rubobining turli xil sozlanishlarini o‘zlashtiring.

2-MAVZU: TANLANGAN CHOLG‘U SOZI UCHUN MO‘LJALLANGAN BOSHLANG‘ICH TEXNIK MASHQLAR O‘RGANISH

Reja:

- 1. Boshlang‘ich texnik mashqlar**
- 2. Rubob cholg‘u ijrochiligidagi xos zarblari va bezaklar**
- 3. Talabalarda notaga qarab ijro etish ko‘nikmasini takomillashtirish**

Kalit so‘zlar: texnik mashq, ijro, ansambl, joziba, imkoniyat, qobiliyat, mezrob, bezak, zarb, qochirim, to‘lqinlatish, tovush.

2.1.Boshlang‘ich texnik mashqlar

Ma’lumki, qashqar rubobini o‘rganish uchun boshlang‘ich mashg‘ulotlarda uni ushslashdan boshlab, chap va o‘ng qo‘l harakatlari, tovush chiqarish, sozlanish, barmoqlar joylashuvi kabi ijro uchun uslubiy ko‘rsatmalar beriladi. Shu bilan birga, ijrochilikni o‘sishi ushun nota yozuvi orqali ko‘plab mashqlar, sodda va ravon usulli

($\frac{2}{4}$, $\frac{3}{4}$, $\frac{4}{4}$ o‘lchovdagi) turli xarakterdagi texnik mashqlar hamda an’anaviy ijrochilikka oid uslubiy ko‘rsatmalar tavsiya etiladi. An’anaviy ijroda qo‘llaniladigan sayqal va bezaklar asosan yirik ko‘rinishdagi mashqlar va asarlar yordamida ijro yetiladi. Bunda ijrochining ijro mahorati qanchalik yuqori ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqar rubobida mizrob bilan tovush hosil qilishdan tashqari o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i bilan torlarni urib tovush chiqarish usuli ham mavjud. Bu «pissikato» shtrixini chalish uslubidir. U asosan orkestr va ansambl ijrochiligidagi akkordlar hamda ayrim musiqiy jumlalarda juda yumshoq ijrolar uchun ishlatiladi.

Chap qo‘lni rubob dastasida to‘g‘ri qo‘yilishi va harakatlanishi uchun quyidagi murakkab bo‘lmagan mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi:

3-mashq.

Bu mashqlarni bajargan vaqtida qo‘llarning yuqoriga harakati, barmoqlarni pardalarni bosib turishiga, pastga harakat paytida esa chalib bo‘lgan barmoqlarning juda kutarilib yoki pastga tushib ketmasligiga alodida e’tibor berish kerak. Ushbu xatolar ijro paytida asarlarni yuqori darajada talqin qilishga to‘sqinlik qiladi, shuningdek, notekis harakatlanish holatlari yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida ijro holatini noto‘g‘ri o‘zlashtirilganligidan dalolat beradi.

Chap qo‘l barmoqlarida uchraydigan shunday kamchiliklarni bartaraf qilishda barmoqlarning keng joylashgan usulda ya’ni katta tersiya intervali qamrovida dastaga qo‘yib chalmasdan ma’lum vaqt mobaynida ushlab turish yaxshi natija beradi.

Rubob chalishni o‘rganishning boshlang‘ich davridan nafaqat bitta tor, balki barcha torlarida mashqlarni chalishga erishish lozim. Bu esa o‘z navbatida tordagi notalarni tez anglay olish, ularning joylashishi va ijro eta olishlari uchun zamin yaratadi.

Tanlab olingen mashqlar talabalarni rubob torlaridagi notalarni joylashishini o‘ranishga, o‘ng va chap qo‘l harakatlarini bir tekisda bo‘lishiga, ijro ko‘nikmalarini shakllanishiga xizmat qilishi lozim.

Cholg‘u asbobida o‘qitish individual xarakterga ega bo‘lganligi bois har bir talabaning iqtidori, qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularga mos keladigan asarlarni maqsadga muvofiq ravishda tanlasa o‘rganilayotgan usullar, shtrixlarning oson o‘zlashtirilishida ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Albatta bu jarayon ham o‘qituvchidan, ham talabandan mas’uliyat bilan yondashishni talab etadi.



Gammalarni bir shtrixda chalish ham talabaning rubob chalishdagi o‘ng va chap qo‘l harakatlarini rivojlanishiga yordam beradi. Misol uchun:


Do major

O‘quv yilining ikkinchi semestrida shtrixlar va tovush sifati ustida ishlanganda ham ikki oktavali biroz murakkabroq gammalardan foydalanish tavsiya etiladi. Ikki oktavali gammalar asosida mashqlar qilish chap qo‘lning harakat tezligi, ravonligi, yengilligini va tovushlar hosil qilishda aniqlikni rivojlantiradi. Tovush hosil qilish ustida ishslash o‘quv yilining har semestrida ko‘zda tutilishi lozim va har bir mashg‘ulotda ma’lum bir daqiqa bunga ajratilishi kerak. Mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqtida talabalarni tovush hosil qilish bo‘yicha o‘z ustida mustaqil ishslashga o‘rgatish, ularni nazorat qilish lozim.

Shuningdek, qashqar rubobi uchun yozilgan o‘zbek bastakorlari ijodidan ham


mashg‘ulotlarda talabalarning ijro texnikasini rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq. Misol tariqasida:

4-mashq



Konsert

Tez

O.Abdullaeva

Ushbu mashqlarni bajarishda yuqorida ta’kidlaganimizdek o‘ng va chap qo‘llar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda harakatlanishi lozim. Bu holat buzilib qolmasligi uchun doimo nazorat qilib borilishi kerak.

2.2.Rubob cholg‘u ijrochiliga xos zarblar va bezaklar

Qashqar rubobini o‘qitishda talabalarga mazkur cholg‘u soziga xos bo‘lgan zarblar va bezaklar haqida ma’lumot berish va amalda ijro etib tushuntirish maqsadga muvofiq. Mizrob orqali hosil qilinadigan oddiy va murakkab bo‘lgan zarblar, ularning turlarini, ijro etilish qoidalarini o‘rgatish bo‘lajak sozanda o‘qituvchi uchun juda muhimdir. Adabiyotlarda urib chalinadigan torli cholg‘ularga xos bo‘lgan zarblarning asosan sakkiz xili haqida fikr yuritilgan. Rubob cholg‘usini o‘qitish amaliyotida ham mazkur zarblardan ijrochilar asarning mazmunan to‘g‘ri ifodalashda foydalanishadi. Bular: Yakka zARB, Qo‘sH zARB, zarbi pARRON (uchma zARB), bilak zARB, rez, kalta rez, teskari zARB va ufar zARB.

Nº	Zarblar	Ijro etish qoidasi
1	Yakka zARB	Rubobda yakka zARB orqali tovush hosil qilinadi, ya’ni tovush chiqarishning eng oddiy usulidir. Shuningdek, mezrobni torlarda pastga yoki yuqoriga urish bilan hosil qilinadi. P-pastga urish, V-yuqoriga urish) bilan ifodalanadi.
Misol uchun:		
2	Qo‘sH zARB	Yakka zARB harakatlarining bir tekisda almashinib turishi natijasidagi tovush hosil qilish usuli hisoblanib, bir xil va turli uzunlikdagi tez, o‘rtacha, sekin tempdagagi tovushlarni

		hosil qilish bilan xarakterlanadi. Qo'sh zarb haqida tushunchaga ega bo'lish bilan birga amalda milliy kuylarimizdagi aynan rubob cholg'usiga moslashtirilgan tovushqatorlardan mashq qilish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday mashqlar qo'sh zARBni o'zlashtirish bilan birga, usulni, milliy ohangni his qilish imkonini beradi.
--	--	--

Misol uchun:



3	Zarbi parron	RUBOB cholg'usida tez-tez qo'llaniladigan usul bo'lib, asosiy tovushga yordamchi sifatida keladigan farshlag yoki qo'sh farshlagni anglatadi. Ushbu zarb xalq kuylari, bastakorlar ijodiga mansub va maqom kuylarini ijro etishda ham xarakterlidir. Zarbi parron - mezrobni yuqoridaN pastga va pastdan yuqoriga tez zarb berish orqali tovush hosil qilishdir. Bu usul kuyning ma'lum ma'noda murakkabligini, ta'sirchan va ijrochining texnik qobiliyatini namoyon eta olishi bilan tavsifланади.
---	---------------------	--

Misol uchun:



4	Bilak zarb	O'ng qo'lni tor bo'ylab mizrob bilan sirg'anma harakatlantirish orqali tovush hosil qilinadi. Bu – "Arpedjio" deb ham ataladi. Bilak zarb kuya mayinlik, yoqimlilik baxsh etishi bilan birga, yakunlanganlikni ham ifodalash maqsadida takning kuchli hissasida va
---	-------------------	--

		jumlaning oxirida ham keng qo'llaniladi.
--	--	--

Misol uchun:



5	Rez	Mizrob bilan pastga va yuqoriga zarb berishning tez va ustma-ust almashinishidan iborat bo'lib, tovushlarni bir-biriga bog'lab (uzluksiz) ijro etishning asosiy usulidir. Bu usulni qo'llash ijrochidan erkinlikni talab etadi. Kuyni ta'sirchanligini, yoqimliligini oshirish maqsadida erkin ijro ekanligi bilan xarakterlanadi. Rezni bir tekisda ifodali ijro etish uchun ijrochi tinimsiz mashq qilishi va o'zining ijro mahoratini oshirishi talab etiladi. Rez faqat katta cho'zimli (yarimtalik va butun notalar emas, balki bir necha taktlardagi kuy jumlalarini uzmasdan ijro etilishida ham keng qo'llaniladi. Bunday paytlarda rez usulining chegaralari «liga» bilan belgilanadi.
---	------------	---

Misol uchun:

Quvnoq yengil

6	Kalta rez	Har bir nota alohida-alohida rez bilan ijro etiladi, bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tmagan holda.
---	------------------	--


Misol uchun:

Shoshmasdan



7	Teskari zarb	Mizrob bilan bir tomon (pastga) zARB berishning ikkinchi choragiqa qat’iy rioya qilish va bir yo‘nalishdagi zARBning oxirgi choragini sakkizdan uchini birlashtirilishi natijasida hosil bo‘ladi. Ya’ni muzrobynning 1, 3, 4, 6, 7,- zARBLARI pastga, 2, 5, 8-zARBLARI yuqoriga qaratib beriladi. Teskari zARBning boshqacha turlari ham mavjud. Bunda noxun yoki mizrobynning 1 – , 4–, 7– zARBLARI pastga. 2 –,3 –,5 –,6 –, 8 – zARBLAR yuqoriga qaratib beriladi.
---	---------------------	--

Misol uchun:



Ufar zARB

Sho‘x, raqsbop xarakterni ifodalaydi. Nota yozuvlarida ufarlar ikki xil, ya’ni $\frac{6}{8}$ va $\frac{3}{4}$ o‘lchovlarda aks etadi. Bu usullarni nota ustidagi belgilar asosida bir-biridan farqlab olish mumkin.


Misol uchun:



Talabalarga yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan zARBlarni mukammal o‘zlashtirishlari uchun dastlab kichik-kichik asarlar so‘ngra murakkab asar va maqomlardagi rubobga moslashtirilgan tovushqatorlardan mashq qilish uchun berish maqsadga muvofiq. Bunda o‘ng va chap qo‘l harakatlarining bir-biriga muvofiqlashishiga erishish talab etiladi.

Shuningdek, rubob ijrochiligidagi asarlarga sayqal berish va ijro bezaklaridan foydalanish musiqa ijrochiligidagi muhim hisoblanadi. Bu bezaklardan foydalanish orqali asarning qaysi xalq, qaysi millatlarga xos ekanligini, undagi ohangni mazmunidan anglab olish imkonini beradi. Bular: «qochirim», «to‘lqinlatish», «nolish», «molish», «kashish» deb nomlanadi.

“Cholg‘u ijrochiligidagi qo‘llaniladigan bezaklarni uch guruhga ajratish mumkin:

- 1) oddiy – bir tovushdan tashkil topgan ; 
- 2) Qo‘sh - ikki tovushdan tashkil topgan ; 
- 3) Uchtalik – uch tovushdan tashkil topgan 

Ijrochilikdagi bezaklar nota yozuvida muayyan belgilar bilan, torga urmagan holda erishiladigan bezaklar esa nota ustiga qo‘shuv (+) belgisini qo‘yish bilan belgilanadi. Nota ustida qo‘shuv belgisi bo‘lmasa tovushlar mizrobnii pastga va yuqoriga urish bilan ijro etiladi.

Navro‘zi ajam

O‘zbek xalq musiqasi

O‘rtacha tez



Bidratma – ikkita yonma-yon tovushlarni tebranishidan hosil qilinadi.



O‘zbek xalq kuyi



Sayqal - bidratmadan farqi shundaki, uch yoki besh tovushdan tashkil topadi. Uni ijro etishda; dastlabki asosiy notadan uni cho‘zimini yarmigacha qisqartiriladi. Sayqalni nota yozuvida quyidagicha belgilaymiz:

a) uch tovushdan iborat sayqal – oddiy mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko‘rsatma-tovushlar oralig‘ini anglatadi:



b) pastda yotuvchi yordamchi tovush – oddiy o‘chirilgan mordent belgisi bilan balgilanadi. Yuqoridagi ko‘rsatma –tovush oralig‘idir:



v) besh tovushdan iborat sayqal –mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko‘rsatma tovushlar oralig‘idir:



g) pastga yotuvchi yordamchi tovush ton yoki yarim ton – qo’sh chizilgan mordent belgisi bilan belgilanadi:



To‘lqinlatish – (vibrato)

deyarli barcha xalq cholg‘ulari va ashula ijrochiligi uchun xos bezak hisoblanadi. Ushbu bezakdan butun, yarimalik, chorak va nimchorak notalarni ijro etganda foydalanish mumkin. Misol:

Garduni Dugoh

1 xona

Nolish – yarim tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma. Bu usul chap qo‘l barmoqlarini bir tekisda dastada ko‘ndalangiga harakatlantirish bilan ijro etiladi. Bu bezak

belgisi orqali ifodalanadi. Misol;

O‘rtacha tez

Nolish – barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohista sirg‘altirish usuli. Kvartadan oktavagacha va undan ham ortiq intervallarda (pastdan yuqoriga, shuningdek yuqoridan pastga) bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg‘alib o‘tish.

Misol uchun:

Shuningdek, kichik va katta sekunda ham tersiya intervallarida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bir tovushdan ikkinchi tovushga bir barmoqda sirg‘alib o‘tiladi.



Har bir torli cholg‘u sozlarida o‘zining ijro bezaklari va zarblari mavjud bo‘lib, aynan Rubob cholg‘u sozida ham ijro bezaklari va zarblar mavjud. Mazkur zerb va bezaklar rubob uchun o‘zgarmasdir va barcha ishlab chiqilgan darslik va adabiyotlarda bir xil tarzda tushuntiriladi”³.

Quyida biz rubob ijrochiligidagi zarblarga xos kichik-kichik mashq va kuylardan namunalar keltiramiz:

1-mashq



2-mashq

³ Р.Қосимов. Анъанавий рубоб ижрочилиги. Дарслик. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1999.

Musical score for 3-mashq, featuring two staves of music. The first staff is in common time (indicated by '2') and the second staff is in common time (indicated by '4'). Both staves use a treble clef. The music consists of eighth-note patterns. Measure 1 starts with a single eighth note followed by a sixteenth-note rest. Measures 2-6 show various eighth-note patterns with rests. Measures 7-12 continue the pattern, with measure 12 ending with a sixteenth-note rest.

3-mashq

Continuation of the musical score for 3-mashq, starting at measure 8. The score continues in common time (indicated by '4') with a treble clef. The music features eighth-note patterns with rests, similar to the previous section but with more complex rhythmic variations. Measures 8-14 show a variety of patterns, including eighth-note pairs and sixteenth-note figures. Measures 15-21 continue the pattern, with measure 21 ending with a sixteenth-note rest. Measures 22-26 show a final set of patterns before the section ends.

4-mashq

1

4

7

10

13

5-mashq

Yangi tanovar

M.Mirzayev musiqasi

7

Yallama yorim

O'zbek xalq kuyi



Dilxiroj

O'zbek xalq kuyi



6-mashq

Shoshmasdan



Dugonalar

Tojik xalq kuyi


Ufa

r zarbning $\frac{3}{4}$ o‘lchoviga (og‘ir ufar) xos mashq:


Ufari Savti Kalon

Oddiy bezak uchun mashq

Nozi-karashma




Qo'sh bezak uchun mashq



Uchtalik bezak esa faqat bir tovushning takrorlanishi bilan ijro etiladi

Misol:

Ushshoq



Navro'zi ajam

O'zbek xalq musiqasi

O'rtacha tez

Musical score for the 'O'rtacha tez' section of Navro'zi ajam. The score consists of two staves of music in 4/4 time with a key signature of one sharp. The first staff begins with a dotted quarter note followed by eighth-note pairs. The second staff begins with a dotted quarter note followed by sixteenth-note pairs. Both staves feature grace notes and slurs.

O'zbek xalq kuyi

Musical score for O'zbek xalq kuyi. The score is in 6/8 time with a key signature of one sharp. It features a single staff of music with dynamic markings 'tr.' (trill) placed above several notes.

Four melodic patterns labeled 'a', 'b', 'v', and 'g'. Each pattern is shown in a single staff of music in 6/8 time with a key signature of one sharp. Pattern 'a' has a simple eighth-note melody. Pattern 'b' adds grace notes. Pattern 'v' adds more grace notes and includes a bass line. Pattern 'g' adds a bass line and includes grace notes.

Tasnifi Buzruk

"Buzruk" maqomidan

Musical score for the Bozgo'y section. It consists of two measures in 2/4 time, treble clef. The first measure starts with a piano dynamic (p) and features eighth-note pairs followed by sixteenth-note pairs. The second measure continues with eighth-note pairs and ends with a trill symbol over a sixteenth note.

Bozgo'y

Musical score for the Mashq section. It consists of four measures in 3/4 time, treble clef, with a dynamic marking of mezzo-forte (mf). The music features eighth-note pairs and some grace notes.

Mashq

Continuation of the Mashq section in 3/4 time, treble clef. The music consists of four measures showing eighth-note pairs and grace notes.

Continuation of the Mashq section in 3/4 time, treble clef. The music consists of four measures showing eighth-note pairs and grace notes.

Tasnifi Navo

First section of the Tasnifi Navo section. It consists of three measures in 2/4 time, treble clef, with a dynamic marking of piano (p). The music features eighth-note pairs and grace notes.

1 хона

Second section of the Tasnifi Navo section. It consists of three measures in 2/4 time, treble clef. The dynamic is mezzo-forte (mf). Measures 1 and 2 feature eighth-note pairs and grace notes, while measure 3 shows a melodic line with grace notes and a fermata over the last note.

4 хона

Third section of the Tasnifi Navo section. It consists of three measures in 2/4 time, treble clef, with a dynamic marking of mezzo-forte (mf). The music features eighth-note pairs and grace notes.

5 хона

Fourth section of the Tasnifi Navo section. It consists of three measures in 2/4 time, treble clef. The dynamic is forte (f). Measures 1 and 2 feature eighth-note pairs and grace notes, while measure 3 shows a melodic line with grace notes and a fermata over the last note.

10 хона

Fifth section of the Tasnifi Navo section. It consists of three measures in 2/4 time, treble clef. The dynamic is forte (f). Measures 1 and 2 feature eighth-note pairs and grace notes, while measure 3 shows a melodic line with grace notes and a fermata over the last note.

Tasnifi Dugoh

Musical score for 'Tasnifi Dugoh' in 2/4 time. The key signature is one sharp. The first measure starts with a grace note followed by eighth notes. The second measure begins with a grace note and includes a dynamic marking 'mf'. The third measure shows a descending eighth-note pattern. The fourth measure features a grace note and a sharp sign above the staff. The fifth measure continues the eighth-note pattern. The sixth measure ends with a sharp sign above the staff and a fermata over the final note.

Garduni Dugoh

Musical score for 'Garduni Dugoh' in 2/4 time. The key signature is one sharp. The first measure starts with a grace note followed by eighth notes. The second measure begins with a grace note and includes a dynamic marking 'mf'. The third measure shows a descending eighth-note pattern. The fourth measure features a grace note and a sharp sign above the staff. The fifth measure continues the eighth-note pattern. The sixth measure ends with a sharp sign above the staff and a fermata over the final note.

2.3.Talabalarda notaga qarab ijro etish ko‘nikmasini takomillashtirish

Talabalarning musiqiy bilimini oshirish uchun “Cholg‘u sozlarini o‘rganish” fani bo‘yicha shaxsiy ish rejasidagi asarlardan tashqari ularga turli mazmundagi bir necha musiqa asarlarini notadan o‘qish vazifasi topshiriladi. Notani varaqdan o‘qish ishlari talabaning o‘zlashtirishiga har tomonlama yordam beradi. Shu sababli ular asarlarni yod olish bilan bir qatorda notani varaqdan o‘qishni ham o‘rgana borishi zarur.

Ko‘nikma deb – o‘quvchi yoki talabaning o‘zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyatiga aytiladi.

Fanning o‘quv dasturidagi izox qismida aynan talabalarni notalarni varaqdan ravon o‘qish, nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish, ijro ko‘nikmalarini takomillashtirish kabi uslubiy ko‘rsatmalardan foydalanish tavsiya etilgan. O‘quv qo‘llanmamizda fan mavzularini yoritishda biz, aynan mana shu uslubiy ko‘rsatmalarga e’tibor qaratganmiz.

Ma’lumki, talabalarning qobiliyatları turlicha bo‘lib, ularning ba’zilarida notaga qarab ijro etish ko‘nikmasi shakllangan, boshqalari esa eshitib yod olishga o‘rgangan bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida o‘rganilayotgan asarni notaga qarab ijro etish, taktmatakt musiqiy tahlil qilib borish jarayonida talabalarning birdek o‘zlashtira olmasliklari ko‘zga tashlanadi. Shu bois, notaga qarab ijro etish va nota o‘qishni mashq qilishi talabaning jo‘rnavozlik faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalarning ansambl va orkestrda mustaqil ijro etishlarida ham notani varaqdan ongli ravishda to‘g‘ri o‘qish va tez tahlil eta olishi katta ahamiyatga ega.

Notaga qarab ijro etish murakkab jarayon bo‘lib, u maxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi. Agar notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, unda quyidagi qismlarni ko‘rishimiz mumkin:

- nota ko‘rinishining talaba ongiga etib borishi;
- talaba ongida qanday harakat amalga oshirish kerakligining aniqlanishi;

- kerakli harakatlar yordamida berilgan notani ijro etish.

Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo‘lishi nota ko‘rinishining ong orqali qabul qilib (anglab), kerakli harakatni amalga oshirishning tezligiga bog‘liq. Agar bu jarayonning biror qismi yaxshi ishlamasda, notaga qarab ijro etishda ko‘zlangan natijaga erishish qiyin bo‘ladi.

Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholg‘ushi keyingi qismini ko‘rib, uning ijrosiga tayyorgarlik ko‘ra bilishidir.

Diqqat-e’tiborni bir maqsadga qarata bilish notaga qarab ijro etishning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan omillardan biridir. Notaga qarab ijro etish qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi amaliy mashg‘ulotlar yordam berishi mumkin: eng oddiy musiqa asari boshlang‘ich taktining birinchi yarmi ijro etilayotganda talaba o‘z e’tiborini shu taktning ikkinchi yarmiga qaratadi. Xuddi shu usul asarning keyingi taktlarini ijro yetishda ham qo‘llaniladi. Boshlang‘ich davrda talaba qiynalmasligi uchun ijro vazmin tezlikda olib boriladi. Mashqlar yordamida talabaga berilgan vazifa asta-sekin murakkablashtiriladi, lekin bu vazifa talabaning imkoniyatlari doirasida bo‘lishi kerak.

Sozandada notaga qarab ijro eta olish qobiliyatini rivojlantirish muammozi va uni hal etishga qaratilgan ko‘pgina ko‘rsatmalar musiqa pedagogikasida alohida o‘rin tutadi. Mohir sozanda ustozlarimizning tajribalaridan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, notaga qarab ijro etish sozandaning kundalik mashqlaridan o‘rin olishi shart. Talaba muntazam ravishda notaga qarab ijro etish bilan shug‘ullangan taqdirdagina turli davrga mansub bo‘lgan rang-barang musiqa asarlari bilan tanishadi.

Notaga qarab ijro etish talabaning eshitish qobiliyatini, kasbiy tajribasini, maxsus bilimlarini boyitib boradi va bularning hammasi o‘z navbatida musiqiy ongning shakllanishi va rivojlanishida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Notaga qarab ijro etiladigan musiqa asarlarining barchasi yod olinishi shart emas. Ular yod olish uchun emas, balki talabaning fikrlash, yangilik ochish va yangi, o‘ziga ma’lum bo‘lmagan taassurotlar bilan tanishish ehtiyojini qondirish

uchun ijro etiladi. Notaga qarab ijro etayotgan sozandaning fikrlashi birmunsha faollashadi, uning musiqa materialini qabul qilib olishi ma'lum darajada o'tkirlashadi. Shu bilan birga talaba notaga qarab ijro yetayotgan musiqa asariga butun vujudi bilan beriladi va uning his-tuyg'ulari ham bu jarayonda bevosita ishtirok etadi. Bundan kelib chiqadiki, notaga qarab ijro etish mashg'ulotlari ijrochi repertuarini, uning nazariy va amaliy bilimlarini boyitibgina qolmasdan, balki umuman musiqiy fikrlash jarayonining sifatini yaxshilaydi.

Shunday qilib, notaga qarab ijro etish talabaning umumiyligi musiqiy rivojlanishidagi eng samarali yo'llardan biridir. Tajribadan shu narsa ma'lumki, sozandaning notaga qarab ijro etish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning ishki eshitish qobiliyati ham shunshalik rivojlangan bo'ladi. Ya'ni bunday sozanda nota belgilariga ko'zi tushishi bilanoq shu tovushni ijrosiz eshita oladi. Demak, sozandadagi «ko'rish orqali eshitish» qobiliyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning notaga qarab ijro eta olishi ham shunchalik sifatli bo'ladi.

Notaga qarab ijro etishning boshqa muhim shartlaridan yana biri shuki, ijrochining nigohi nota matnidan uzilmasligidir. Cholg'u torlari va pardalar joylashuvini yaxshi o'zlashtirib olmagan talabalarning nigohlari dam nota matniga, dam cholg'u grifiga ko'chib turadi. Bunday talaba notaga qarab, uning balandligini belgilab olgandan so'ng, nigohini cholg'u grifidagi pardaga ko'chirishga majbur. Chunki pardalarni yaxshi o'zlashtirib olmaganligi sababli grifga qaramasdan barmoqni pardaga aniq qo'ya olmaydi. Navbatdagi notani aniqlashda talaba yana nigohini nota matniga ko'chiradi. Bunday vaziyatda ko'p talabalar matnning qaysi joyiga kelganliklarini yo'qotib qo'yadilar. Kerakli joyni topib olish uchun esa bir oz vaqt talab etiladi. Mana shu kamchiliklar natijasida talabalarning ijrosida keraksiz to'xtashlar sodir bo'ladi. Bu esa asarning uzluksiz ijrosiga putur yetkazadi. Shu sababli ijrochi nigohini bir manbadan ikkinchi manbara ko'chishi qanchalik kam bo'lsa, shunchalik ijro ushun foydali bo'ladi. Demak, cholg'u ijrochiligi ta'limida sozandalarning kerakli pardani topa bilish sifatlarini boshqa ko'nikmalar qatori muntazam ravishda nazorat qilib borish, notaga qarab bemalol ijro eta olish qobiliyatini rivojlantirish o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Talabada notaga qarab ijro etish tajribasi ortib borgan sari nota yozuvidagi ko'rsatilgan tovush balandligini belgilay olishi uchun tobora kam vaqt talab etiladi. Bunda nota nechanchi chiziqda turibdi, cho'zimi qanday kabi savollar deyarli tug'ilmaydi. Notalarning chiziqlardagi joylashuvi va ularning cho'zimlarini aniqlash ishi talabada odatiy tarzda kechib boradi. Natijada notaga qarab ijro etish tezligi tobora ortib boradi. Dars jarayonida mana shu sifatlarni talabalarga muntazam ravishda o'rgatib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, notaga qarab ijro etishni rivojlantirish uchun yangi o'rganilayotgan musiqa asarida oldingi asarlar bilan o'xshashlik joylarini, farqlarini belgilab olish ham o'z samarasini beradi.

Notaga qarab ijro etishning dastlabki jarayonida nota matnidagi barcha belgilarga qat'iy rioya qilishni birdaniga talab etib ba'lmaydi. O'qituvchi bu jarayonda talabaning birinchi navbatda e'tibor berishi kerak bo'lgan joylarini oldindan tushuntirib, belgilab berishining ahamiyati juda kattadir. Albatta, talaba asardagi yaxlit musiqiy fikrning boshlanishi va tugallanishiga birinshi navbatda e'tibor berishi kerak. Ya'ni asardagi bayon etilayotgan tugal fikrning uzilib qolishi yoki tushunarsiz ijro etilishiga yo'l qo'yish kerak emas. Notaga qarab ijro etishni asardagi bayon etilayotgan musiqiy fikrlar asosida tashkil etish yaxshi natija beradi.

Notanish bo'lgan musiqa asarini notaga qarab ijro etishdan oldin talaba shu asarning nota matnini sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib, tanishib shiqishi, ya'ni shu asarni cholg'usiz «ijro etishi» tavsiya etiladi. Bunday usul qo'llanganda, birinchidan, sozanda bevosita ijro harakatlaridan xoli bo'ladi; ikkinchidan, asarning tuzilishi, mazmuni, shakli va boshqa xususiyatlari bilan tanishish imkoniyati tug'iladi. Keltirilgan fikrlarga yana qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, talaba asarning nota matnini ko'zdan kechirib, cholg'usiz, hirgoyi qilib ijro etishi uning ishki eshitish qobiliyatini ma'lum darajada rivojlantirib boradi. Tajriba shu narsaga guvohlik beradiki, musiqa asari bilan bunday tanishuvdan keyin ijro yengil va aniqroq amalga oshiriladi, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar kamayadi va ijro erkinligi ta'minlanadi.

Demak, talabalarda notaga qarab ijro etish ko'nikmasini yanada rivojlantirish turli o'lchovlardagi kuylardan va mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1-misol

Moderato



2-misol



3-misol

Marsh tempida



Notadan o‘qish uchun musiqiy namunalar

8.



7.



4.



ONAM

Mashrab g'azali,
A.Dadayev musiqasi

Andante

A musical score page for 'ONAM' in G major and common time. It starts with a section labeled 'Andante' for 'Solo'. The music consists of eighth-note patterns. Measure 1 begins with a dotted half note followed by an eighth-note pattern. Measure 2 begins with a sixteenth-note pattern followed by an eighth-note pattern. The tempo is indicated as 'Andante'.

7

Continuation of the musical score for 'ONAM' in G major and common time. It shows two measures of eighth-note patterns. Measure 3 begins with a sixteenth-note pattern followed by an eighth-note pattern. Measure 4 begins with a sixteenth-note pattern followed by an eighth-note pattern.

14

Ansambl

Continuation of the musical score for 'ONAM' in G major and common time. It shows two measures of eighth-note patterns. Measure 5 begins with a sixteenth-note pattern followed by an eighth-note pattern. Measure 6 begins with a sixteenth-note pattern followed by an eighth-note pattern.

EY QALB

A.Oripov she'ri
A.Dadayev musiqasi

Andante



Zuv-zuv borag'ay

O'rtacha tezlikda

Bolalar qo'shig'i



Zuv - zuv bo-ra-g'ay, Tom-dan qa-ra-g'ay, Sul - ton o'-qi - gay, Zam - bil to'-qi - gay.

Zuv-zuv borag'ay,
Tomdan qarag'ay,
Sulton o'qigay,
Zambil to'qigay.

Choriy chambar

O'rtacha tezlikda

Bolalar qo'shig'i.



Cho-riy cham-bar Bi - riy an - bar O-na qiz qay - da? O-la bu-la tog' - da Tog'-man - zuv-man,



Pil-ta-kach, na-ri tur, San tur, san chiqKu-mush bol-g'a O-na-vosh, yon-bosh,Gul-dur-gup.

Choriy chanbar,
Biriy anbar,
Ona qiz qayda?
Ola-bula tog'da.
Tog'man-zuvman,
Piltakach,nari tur,
San tur,san chiq,
Kumush bolg'a,
Onavosh,yonbosh,
Guldur-gup.

Yor-yor

Chaqqon

O'zbek to'y qo'shiqlaridan

Yor-yor

Quvnoq

O'zbek to'y qo'shiqlaridan

Chumchuq

A.Ixtiyorov musiqasi

Sho'x

Yur o'rtoq

J.Kenjayev musiqasi

Sho'x

Archa qo'shig'i

X.Muhamedova

O'rtacha



Jo'jalar


M.Yusupov musiqasi

Chaqqon



Samoi Dugoh

Tezroq



Yoshlar marshi

S.Aliyev musiqasi

Chaqqon

Hayvonot bog‘ida

Sekin

J.Kenjayev musiqasi

O'BEKISTONIM YAXSHIDUR

A.Dadayev
musiqası

Andante

7

Tan-ga yo-qar Tog'-ning o-bu ha-vo - si,

13

O-dam ah - li e-rur shi-rin da-vo - si.

Muxammasi Rost (Yu.R.)

М.М. ♩=60
№ 12 1 хона

10

Muxammasi Rost (Yu.R.)

М.М. ♩=60
№ 13 3 хона

II

Muxammasi Rost (Yu.R.)

М.М. ♩=60
1 хона

№ 12

10

Muxammasi Rost (Yu.R.)

М.М. ♩=60
3 хона

№ 13

10

11

Five staves of musical notation for a single melodic line, likely a solo instrument. The notation consists of quarter notes, eighth notes, sixteenth notes, and thirty-second notes. The first four staves are identical, while the fifth staff features a different rhythmic pattern.

Saraxbori Navo

Two staves of musical notation for a single melodic line, labeled "Saraxbori Navo". The notation includes quarter notes, eighth notes, and sixteenth notes. The first staff starts with an open circle (no note head). The second staff starts with a dash (no note head).

Muqimiy muhammasi
♩ = 100

Qalandar-I

Xalq musiqasi

Musical score for Qalandar-I in G major, 4/4 time. The score consists of three staves of music. The lyrics are written below the second and third staves.

So ya iy——— dur_men ki boq mas So ya iy——— dur_men ki boq mas

of to——— bim——— kim_ de sun_ney

Laylak parvozi

I.Hamroyev musiqasi

Musical score for Laylak parvozi in G major, 2/4 time. The score consists of two staves of music.

Oyijon

X.Taxalov musiqasi

Musical score for Oyijon in G major, 2/4 time. The score consists of two staves of music. The first staff has measure numbers 4 above the notes.

Garduni Rost (A.B.)



Gullola

Sekin

O'zbek xalq qo'shig'i

A musical score for a solo instrument. It consists of two staves. The top staff is in 2/4 time with a treble clef, featuring sixteenth-note patterns. The bottom staff is in 2/4 time with a bass clef, featuring eighth-note patterns. The piece includes dynamic markings "mf" and "ff". The title "Gullola" is written above the first staff, and the subtitle "O'zbek xalq qo'shig'i" is written above the second staff.

Saraxbori Dugoh

Andante $\text{♩} = 90$

A musical score for a solo instrument. It consists of two staves. The top staff is in 2/4 time with a treble clef, featuring eighth-note patterns. The bottom staff is in 2/4 time with a bass clef, featuring eighth-note patterns. The piece includes dynamic markings "o" and "ff". The tempo is specified as "Andante $\text{♩} = 90$ ".

Tani Maqomi Rost.
Xorazm tanbur chizig'idan.
(Notalashtiruvchi R.Boltayev).

M.M. $\text{♩} = 75$
Bozgo'y
№ 4

2

2

Tasnifi Rost. (A.B.)

№ 5

2

2

2

Tasnifi Rost. (V.U.)

M.M. $\text{♩} = 76$
№ 6

2

2

М.М. $\text{♩} = 66$

1-хона

Musical score for the first section (1-hona) of the piece 'Muxammasi Iroq.'. The score consists of two staves. The top staff is in treble clef and 2/4 time, featuring eighth-note patterns. The bottom staff is in bass clef and 2/4 time, featuring eighth-note patterns with rests. The tempo is indicated as $\text{♩} = 66$.

Мухаммаси Ироқ. (Ю.Р.)

Continuation of the musical score for the first section (1-hona). The top staff continues the eighth-note patterns in treble clef. The bottom staff continues the eighth-note patterns with rests in bass clef.

Muxammasi Iroq. (Y.U.R.)

Бозгүй

Musical score for the second section (Бозгүй) of the piece 'Muxammasi Iroq.'. The score consists of two staves. The top staff is in treble clef and 2/4 time, featuring eighth-note patterns. The bottom staff is in bass clef and 2/4 time, featuring eighth-note patterns with rests. The tempo is indicated as $\text{♩} = 66$.

Continuation of the musical score for the second section (Бозгүй). The top staff continues the eighth-note patterns in treble clef. The bottom staff continues the eighth-note patterns with rests in bass clef.

Muxammasi Iroq. (Y.U.R.)

2-хона

Musical score for the third section (2-хона) of the piece 'Muxammasi Iroq.'. The score consists of two staves. The top staff is in treble clef and 2/4 time, featuring eighth-note patterns. The bottom staff is in bass clef and 2/4 time, featuring eighth-note patterns with rests. The tempo is indicated as $\text{♩} = 66$.

Continuation of the musical score for the third section (2-хона). The top staff continues the eighth-note patterns in treble clef. The bottom staff continues the eighth-note patterns with rests in bass clef.

Go'zal yor

A. Asqarov musiqasi

Quvnoq

4

Gunafsha

G. Hamroyev musiqasi

O'rtacha

3

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va amaliy topshiriqlar

1. Boshlang'ich texnik mashqlarga qanday o'chovdagilar kiradi?
2. Qashqar rubobida mizrob bilan tovush hosil qilishdan tashqari yana qanday tovush chiqarish usuli mavjud?
3. O'ng va chap qo'l harakatlarini rivojlanishiga yordam beradigan mashqlarni o'zlashtiring.
4. Sozanda uchun notani ravon o'qishning ahamiyati nimada?
5. Nota o'qish ko'nikmasini rivojlantirib borimg.
6. Notaga qarab ijro etish qobiliyatini rivojlantirish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?
7. Kuyni notaga qarab tahlil qilishni o'zlashtiring.

3-MAVZU: BASTAKORLAR IJODIYOTIGA MANSUB KICHIK SHAKLDAGI CHOLG‘U KUYLARIDAN O‘RGANISH

Reja:

- 1. Repertuar tanlash**
- 2. Rubob cholg‘usida yangi asarlarni o‘zlashtirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar**

Kalit so‘zlar: repertuar, mezon, talab, qoida, uslub, nazariy-amaliy, estetik did, badiiy, imkoniyat, samaradorlik, ijodiy.

3.1.Repertuar tanlash

Mumtoz musiqa merosining shakllanish davridan boshlab ijrochilar amaliyotida, repertuar tanlashda insonning psixologiyasi (ruhiyati)ni hisobga olish odatga aylanib kelgan.

Bastakorlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarda milliylikni, shuningdek, Vatan madhi, yurt tinchligi, muhabbat, mehr-oqibat kabi tuyg‘ularni his qilishimiz mumkin. Albatta, bunday asarlarni talabalar o‘quv yilining har semestrida o‘rganib borishlari talab etiladi.

Bastakorlardan: T.Jalilov, F.Sodiqov, M.Mirzaev, J.Sultonov, Yu. Rajabiy, H.Boltaev, G‘.Hojiqulov, M.Murtazoev, R.Tursunov, G‘.Ro‘ziboev, I.Akbarov, R.Komiljonov, G‘.Qodirov, A.Ismoilov, A.Dadayevlarning asarlari rubobga moslashtirilgan holda mohir sozandalar tomonidan ijro qilib kelinmoqda. Talaba-yoshlar ham bunday kuylarni sevib ijro qiladilar. Bastakorlarning kichik-kichik hajmdagi asarlarini talabalarning o‘zlashtirish darajasiga qarab o‘rganish, so‘ngra murakkabroq asarlarga o‘tish tavsiya etiladi.

Lekin, muayyan bir ijrochining shakllanishini va kamolotga erishish yo‘lida ijrochi ta’biga mos omillarni to‘g‘ri hal qilish katta ahamiyatga ega. Musiqa bilimdonlari “ustoz-shogird” an’anasida, avvalo shogirdning ana shu tomoniga e’tiborni qaratganlar.

Musiqa san’atida cholg‘u ijrochilarning shaxsiy fiziologik, tabiiy va ruhiy holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator unsurlar mavjud. Bu unsurlar ijrochining avlodi, oilasi, o‘sib ulg‘aygan muhit, yashash makoni, davri, do‘stlari va nihoyat

jamiyatdagi o‘rni bilan xarakterlanadi. Albatta, ijrochiga bo‘lgan munosabat, hurmat va izzat ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bularni barchasini uyg‘unlashuvida ijrochining qiziqishi, xohishi va istagi asosiy mezonne (rolni) bajaradi. Ustozlarning «shogirdlarni imkoniyatlariga qarab asar tanlash lozim» degan ishoralari zaminida ana shu jihatlar yotadi. Zamonaviy til bilan aytganda, ijrochining ijro repertuari, aynan shu masala hisoblanadi. Demak, bu jarayonlar qanday izohlanadi? Ijrochi aslida o‘z ijro repertuari bilan elga taniladi. Ijro repertuar esa, biz yuqorida keltirganimizdek, turli saviyadagi ovoz va imkoniyatlari ijrochilar uchun bir-biridan farqli tarzda tarkib topadi. Ijro ham shunga xos shakllanadi. Aslida bu jarayon puxta o‘ylangan va imkoniyatlar doirasida va ijrochining xohishi negizida tuzilishini taqozo etiladi. Avvalo, ijro repertuarni ijrochining o‘zi tanlashi lozim. Chunki, ijrochiga bir asar yoqib qolsa uning o‘zlashtirilishi va idroklanishi oson kechadi. Bilimli va mohir ijrochilarda bu jarayon asosiy mezon hisoblangan.

Talaba uchun o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quv materialini yoki asarlarni o‘zlashtirmay ketish emas, balki bunday qiyinchiliklarni yengishga ko‘nikma hosil qilish, o‘zlashtirishda yaxshi natijalarga olib keladi. Faqat yengil asarlar ustida ishslash esa talabaning murakkab texnik ijrochilik rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi, ma’lum darajada uning umumiyyusiqaviy ijrochilik rivojlanishini cheklab qo‘yishi mumkin. Har bir talabaning asosiy ijro imkoniyatlariga qarab o‘qituvchi unga aniq vazifa berishi va uning bajarilishini muntazam ravishda tekshirib bormog‘i maqsadga muvofiqdir.

Ijro repertuarni tanlashda quyidagi 4 ta mezonga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Ijrochining **nazariy va amaliy saviyasi**;
- **o‘quv darjasи** (ijrochilik sohasidagi darjasи);
- **ijro imkoniyatlari** (har bir ijrochi o‘z ijrosi chiroyli bo‘lishi uchun tanlaydigan asarlariga e’tibor bilan yondoshishlari lozim);
- **bilim miqdori**.

Ijrochilikda yo‘nalish ko‘p. Shu bois, o‘zlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi juda muhim. Ijrochilikda birdaniga yirik asarni o‘zlashtirib ijro etish yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Zero, amaliyatda muxlislar tomonidan idrokli ijro

juda ardoqlanadi. Yirik asarning yirik muammolari bo‘ladi. Uni yechimini topish uchun yirik quvvat, saviya va mahorat lozim bo‘ladi.

Sozanda va xonandalar erishishi lozim bo‘lgan cho‘qqilardan biri ana shunday murakkab asarlarni me’yoriga yetkazib ijro etishni o‘zlashtirishidadir. Qolaversa, shunday asarlar mavjudki, ularda bir nechta usullar almashib kelishini kuzatishimiz mumkin. Masalan Yunus Rajabiyning «Ne navo soz aylagay» ashulasi. Uni o‘zlashtirish uchun ustozning aniq ko‘rsatmalari va sabog‘i lozimdir. Bu muammoning bir tomoni.

Repertuar tanlashdagi yana bir masala bu – asarni ovoz imkoniyatlariga mos kelishi. Odatda, mumtoz musiqa namunalarining aksariyati shiddatli ovoz, unga cholg‘uda jo‘rnavozlik, baland avjlarda ehtirosli tarannumni talab etadi.

Repertuar tanlashning eng muhim va jonli jarayonda katta e’tibor talab etuvchi tomoni ijrochining *estetik dididir*. Bu tuyg‘u ijrochining tinglovchi bilan muloqotini mustahkamlashi va samara berishini ta’minlab beradi. Unga ko‘ra ijrochi tinglovchilarning ta’bini, davraning talabini to‘g‘ri baholashi zarur va repertuaridan shunga mos asar tanlab ijro etishi lozim bo‘ladi.

3.2.Rubob cholg‘usida yangi asarlarni o‘zlashtirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar

Cholg‘uda ijro etishni o‘rgatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning asosiy shakli – yakka darsdir. Har bir dars mazmun jihatidan tugallangan bo‘lib, aniq maqsadga erishish uchun yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak (yangi materialni o‘rganish, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va ularni mustahkamlash, takrorlash, bilim va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini nazorat qilish hamda hisobga olish va boshqalar).

Cholg‘u ijrochiligi darsining asosiy belgisi ta’limda nimalarga erishish kerakligini ko‘rsatuvchi didaktik maqsad bo‘lib, shunga asosan amaliy mashg‘ulotlarni o‘ziga xos turlarga bo‘lish mumkin:

- yangi asarni o‘rganish va ko‘nikmalarni hosil qilishga bag‘ishlangan mashg‘ulot;
- o‘rganilgan asarni takrorlash va umumlashtirish;

- ijrochilik mahoratini hamda bilim va ko‘nikmalarni nazorat qilish va hisobga olish;

- bir necha maqsadni o‘z ichiga olgan (takrorlash, jo‘rnavoz bilan ijro etish, ijro texnikasini oshirishga qaratilgan) aralash mashg‘ulot.

1. *Yangi asarni o‘rganish va ko‘nikmalarni hosil qilishga bag‘ishlangan darsning asosiy uslubi* — tushuntirish. Lekin darsning kirish qismida talabani yangi materialni faol qabul qilib olishga tayyorlash zarur bo‘ladi. Bunday tayyorgarlikni talabalardagi mavjud bilimlar asosida va ular bilan bog‘liq ravishda olib borish yaxshi natija beradi. Darsning bu turiga yangi musiqa asarini o‘rganish jarayonini misol qilib oladigan bo‘lsak, unda darsning asosiy maqsadi shu asarning biror bo‘lagini zarur bo‘lgan barcha harakatlar, ijro etish uslublari va belgilarini hisobga olib, chuqur tahlil qilish va ijro etilgandan so‘ng nazariy xulosa chiqarishdan iborat bo‘ladi. Bu xulosa bir necha yo‘nalishda bo‘lishi mumkin. Masalan, umuman musiqa asari haqida, uni ijro etish uchun zarur ko‘nikmalarni hosil etish uslublari, musiqiy fikrning yo‘nalishi va hokazo. Mazkur dars turining keyingi bosqichida talaba o‘zlashtirgan bilimlar mustahkamlanadi.

Cholg‘uda ijro etishni o‘rgatish va o‘rganish jarayoni faqatgina musiqa asarlarini o‘rganish va ijro etish bilan chegaralanib qolmay, balki talabalar tomonidan ma’lum ko‘nikmalarni hosil etishni ko‘zda tutadi. Bu ko‘nikmalarning hajmi va soni dasturlarda ko‘rsatiladi. Cholg‘udagi ijro etish ko‘nikmalariga turli murakkablikdagi ijro etish usul va uslublari, gamma va uchtovushliklar, mashqlar kiradi. Talabalar u yoki bu ko‘nikmani hosil etish yo‘llarini aniq tasvvur etishida o‘qituvchi unga yaqindan yordam berishi lozim.

Shunday qilib, yangi materialni o‘rganish va ko‘nikmalarni hosil qilishga bag‘ishlangan darsning tuzilishini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

-kirish qismi - ijro etiladigan asar to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotni bayon etish va darsning maqsadini aniqlash;

- ko‘nikma hosil etishni nazariy jihatdan asoslash va amalda ijro etish;
- hosil bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni tahlil etish va shu asosda xulosa chiqarish;

- olingan bilim va ko‘nikmalarni turli mashqlar yordamida mustahkamlash;
- uy vazifasini belgilash.

2. *O‘rganilgan asarni takrorlash va umumlashtirish darsi.* Bilim va ko‘nikmalarni takrorlash va umumlashtirish yuqorida ko‘rib chiqilgan dars turlarida ham uchraydi. Misol uchun musiqa asarini o‘rganish jarayoniga murojaat etamiz. Yangi asarni o‘rganish darsida kuyni qismlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ayrim qismlar o‘zlashtirilgandan so‘ng, ularni yaxlit tarzda (to‘xtamasdan) ijro etish vazifasi turadi. Bunga erishish uchun talaba takrorlash va umumlashtirish ishlarini bajaradi. Musiqa asarini yaxlit tarzda ijro etishda musiqiy fikrlarning boshlanishi va tugashini, yo‘nalishi va avji(kulminatsiyasi)ni belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, talabada musiqa asarining shakli to‘g‘risida aniq tasavvur bo‘lishi kerak.

Bu turdagи darsda talabani musiqa asarini to‘la tahlil eta olishga ham o‘rgatib boriladi. Takrorlash va umumlashtirish darsida kerakli musiqa yozuvlarini tinglash ham o‘zining yaxshi samarasini beradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi tanlab olgan dars turiga qarab takrorlash va umumlashtirish darsining tuzilishini turlicha belgilashi mumkin. Ko‘p hollarda darsning bu turi o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- musiqa asarining umumiyligi tuzilishi to‘g‘risidagi suhbat va asarning tahlili;
- o‘quvchining ijro etishi uchun murakkab bo‘laklarni alohida ko‘rib chiqish;
- asarni yaxlit ijro etish;
- xulosa chiqarish;
- uy vazifasini belgilash.

3. *Ijrochilik mahoratini hamda bilim va ko‘nikmalarni nazorat qilish va hisobga olish.* Bilimlarni nazorat qilish va hisobga olish ishi dars turidan qat’i nazar, o‘qituvchi tomonidan har bir mashg‘ulotda amalga oshirib boriladi. Bunday nazorat ta’lim oluvchilarining o‘zlashtirish darajasini, o‘zlashtirishda qo‘llanilayotgan uslublar samarasini belgilash uchun nihoyatda zarur. Muntazam ravishda olib boriladigan nazorat talabalarda o‘z faoliyati uchun javobgarlik hissini kuchaytiradi. Nazorat va hisobga olish ishini darsning barcha turlari davomida amalga oshirilishi bilan bir

qatorda uni alohida mashg‘ulot sifatida o‘tkazib turilishi maqsadga muvofiqligi tajribadan ma’lum. Bilimlarni nazorat qilish va hisobga olish ishining tugal ko‘rinishi tekshirish bo‘lib, u imtihon yoki sinov shaklida bo‘lishi mumkin. Bunda talaba ta’limning shu bosqichi uchun belgilangan dasturni ijro etadi hamda berilgan savollar asosida nazariy bilimlarini og‘zaki bayon etadi. Imtihon yoki sinov vaqtida talaba yo‘1 qo‘ygan xato va kamchiliklarning sababini aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini belgilash o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

4. Bir necha maqsadni o‘z ichiga olgan (takrorlash, jo‘rnavoz bilan ijro etish, ijro texnikasini oshirishga qaratilgan) aralash mashg‘ulot. Ko‘p hollarda bir dars davomida o‘zining maqsadi jihatidan turlicha bo‘lgan bir nechta vazifani bajarish kerak bo‘ladi: uy vazifasini tekshirish, takrorlash, yangi material bilan tanishish, uni mustahkamlash va hokazo. Pedagogika fanida bunday darsni aralash (kombinatsiyalashtirilgan) dars deb yuritiladi. Talabalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda bunday darslarni quyidagicha tuzish mumkin:

- uy vazifasini tekshirish va takrorlash;
- yangi asarni o‘zlashtirish va takrorlash, jo‘rnavoz bilan ijro etish;
- yangi asarni bo‘yicha ijro texnikasini rivojlanish darajasini tekshirish;
- uy vazifasini belgilash.

Keltirilgan dars turlarining barchasi ham ko‘rsatilgan qismlarga ega bo‘lmashigi mumkin. Ta’limning muayyan bosqichi talablariga binoan darsning qismlari ma’lum darajada o‘zgarib turadi va shu bilan birga har bir dars barcha sharoitda ham o‘tilgan va bo‘lajak darslar bilan bog‘liq holda olib borilishi kerak.

So‘nggi yillarda rubobda ijrochilik san’ati rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bu cholg‘u uchun yangi, original asarlar yaratilmoqda, Bastakorlar tomonidan turli kuylar qayta ishlanib, ijrochilar repertuaridan keng o‘rin olmoqda.

Rubob cholg‘usi hajmi, tovush tembri, diapazoni, sozlanishi hamda ijro etishning ayrim tamoyillari bilan boshqa cholg‘u sozlaridan farq qiladi. Bu cholg‘uda yakkanavoz, shuningdek, ansambl va orkestrlar tarkibida ham ijro etiladi.

Bastakorlik ijodiyotidan tavsiya etilgan musiqiy asarlar



Archa bayrami

I.Akbarov musiqasi
F.Abduaazimov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

Moderato

The musical score consists of two staves of notation. The first staff begins with a measure of eighth-note pairs followed by a repeat sign. The second staff continues with eighth-note pairs. Both staves feature vertical stems pointing downwards.



Bahor qo'shig'i

G'.Qodirov musiqasi
F.Abduaazimov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

Moderato

The musical score consists of two staves of notation. The first staff begins with a measure of eighth-note pairs followed by a repeat sign. The second staff continues with eighth-note pairs. Both staves feature vertical stems pointing downwards.



Biz baxtiyor oilamiz

R.Komiljonov musiqasi
F.Abduaazimov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

Moderato

The musical score consists of two staves of notation. The first staff begins with a measure of eighth-note pairs followed by a repeat sign. The second staff continues with eighth-note pairs. Both staves feature vertical stems pointing downwards.

Bahor



I.Akbarov musiqasi
F.Abduazimov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

Allegro

9

10

Vatan marshi



F.Sodiqov musiqasi
F.Abduazimov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

Marsh tempida

5

10

16

21

25



Orzu dil

M.Mirzayev musiqasi
F.Abduazimov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

The musical score consists of eleven staves of sheet music, each starting with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The time signature is 3/4 throughout. The score includes various dynamic markings such as 'tr' (trill), '+' (accent), and '^' (tie). Measure numbers are indicated at the beginning of several staves: 1, 7, 14, 21, 27, 33, 39, 45, and 51. The music features a mix of eighth and sixteenth-note patterns, with some measures containing rests or single notes.



Raqqosasidan

J.Sultonov musiqasi
R.Abduaزمov notaga olgan

M.M. ♩ = 80



Feruza

G'.Ro'ziboyev musiqasi
F.Abduaزمov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

O'rtacha tez

8

15

22

29

36

43

50

1.

2.



Gulshan

M.Mirzayev musiqasi
F.Abduaزمov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

The sheet music consists of 12 staves of musical notation for rubob, arranged in three columns of four staves each. The notation includes various rhythmic patterns, dynamic markings like 'tr' (trill) and 'rit.' (ritardando), and performance instructions such as '+' and '^'. The staves are numbered 8, 16, 23, 31, 38, 47, 54, 62, and 66 from top to bottom. The music is in 2/4 time and uses a treble clef.



Arzi hol

R.Tursunov musiqasi
F.Abduazimov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

O'rtacha tez

The sheet music consists of eight staves of musical notation for a rubob. The key signature is A major (two sharps). The time signature is common time. The music is divided into measures by vertical bar lines. Measure numbers are placed at the beginning of each staff: 1, 6, 11, 17, 22, 28, 33, 38, and 43. Various musical markings are present, including:

- Triplet markings (three vertical wavy lines) above certain groups of notes.
- Plus signs (+) placed above specific notes.
- Dynamic markings: *mf* (mezzo-forte) at measure 38, *tr* (trill) at measure 33, and *tr* with a wavy line at measure 43.
- Staccato dots under some notes.
- Slurs connecting groups of notes.
- A fermata over a note in measure 11.
- A repeat sign with a brace at measure 11.
- A double bar line with repeat dots at measure 17.
- A double bar line with repeat dots at measure 22.
- A double bar line with repeat dots at measure 28.
- A double bar line with repeat dots at measure 33.
- A double bar line with repeat dots at measure 38.
- A double bar line with repeat dots at measure 43.



Shahlo

R.Tursunov musiqasi
R.Abduaazimov rubob cholg'usi
uchun moslashtirgan

O'rtacha tez

The musical score consists of 12 staves of music for rubob, arranged in three columns of four staves each. The key signature is A major (two sharps), and the time signature is common time (indicated by '6'). The score includes various musical markings such as grace notes, dynamic changes (e.g., *mf* at measure 42), and performance instructions like 'O'rtacha tez' (medium tempo).

Measures 1-7: The music begins with a steady eighth-note pattern. Measure 8 introduces grace notes above the main notes. Measures 9-11 show a more complex rhythmic pattern with grace notes and slurs. Measures 12-15 continue this pattern with some dynamic changes.

Measures 16-20: The music becomes more melodic, with sustained notes and grace notes. Measure 21 introduces a dynamic marking of *mf*.

Measures 22-26: The pattern continues with grace notes and sustained notes.

Measures 27-31: The music remains melodic with grace notes and sustained notes.

Measures 32-36: The pattern continues with grace notes and sustained notes.

Measures 37-41: The music becomes more rhythmic, featuring sixteenth-note patterns and grace notes.

Measures 42-46: The pattern continues with grace notes and sustained notes.

Measures 47-51: The music becomes more melodic again, with sustained notes and grace notes.

Measures 52-56: The pattern continues with grace notes and sustained notes.

Measures 57-61: The music becomes more rhythmic, featuring sixteenth-note patterns and grace notes.

Measures 62-66: The pattern continues with grace notes and sustained notes.

Measures 67-71: The music becomes more melodic again, with sustained notes and grace notes.

Measures 72-76: The pattern continues with grace notes and sustained notes.



Bizning ayvon

T.Jalilov musiqasi
